



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 2-son

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2023
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.3.2.

ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.



Crossref
Content
Registration

TAHRIR HAY'ATI

N. SALAYEV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori – bosh muharrir

Y. KOLENKO

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i – bosh muharrir

D. BAZAROVA

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor – bosh muharrir o'rinbosari

K. HAKIMOV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – mas'ul muharrir

M. RUSTAMBAYEV

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti rektori, yuridik fanlar doktori, professor

F. RAXIMOV

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

Q. ABDURASULOVA

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

V. DAVLYATOV

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktori o'rinbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

S. NIYOZOVA

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

SH. HAYDAROV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

R. KABULOV

O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. UMIRZAKOV

O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi Kriminologiya kafedrası katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

A. BARATOV

TDYU Kriminalistika va sud ekspertizasi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi

I. ASTANOV

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. PULATOV

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

“Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-2179

© Toshkent davlat yuridik universiteti



MUNDARIJA

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

Niyozova Salomat Saparovna

HUQUQBUZARLIKLARNING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASI:

MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA 4

Islomov Bunyod Ochilovich

BRAZILIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA JAZONI

YENGILLASHTIRISH INSTITUTI15

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Toshev Otabek Sodiqovich

O'ZBEKISTONDA ADVOKATNING JINOYAT-PROTSESSUAL VAKOLATLARINI

KENGAYTIRISH MASALALARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL28

Shonazarov Abduvali Shonazarovich

HUJJATLARNI QALBAKILASHTIRISH VA QIMMATLI QOG'OZLARNI

SOXTALASHTIRISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING

XORIJ AMALIYOTI38

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.2./XUVU8270>
UDK: 343.988(045)(575.1)

HUQUQBUZARLIKLARNING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Niyozova Salomat Saparovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3970-2985
e-mail: salomat.niyozova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasining milliy va xorijiy tajribasi tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada Kriminologiya fani doirasida jabrlanuvchining turli jihatlarini kompleks tadqiq qilish vazifasi qo'yilib, jabrlanuvchisiz jinoiy qilmish bo'lishi mumkin emasligi yuzasidan fikrlar o'rganilgan. Har qanday jinoiy qilmish oqibatida jabrlanuvchiga muayyan (moddiy, ijtimoiy, jismoniy, ruhiy, ma'naviy, bevosita, bilvosita va h.k.) zarar yetkazilishi hamda huquqbuzarliklardan har xil obyektlar yoki qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy ahamiyatga molik manfaatlarning egalari jabrlanishi mumkinligi borasida muallif o'z fikrlarini bayon etgan. Maqolada kriminal viktimologiyani o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad, huquqbuzarlik va jinoyat jarlanuvchilarining mazkur holatlar yuzaga kelishida tutgan o'rni, ahamiyatini, jinoiy vaziyatning yuzaga kelishi va rivojlanishiga qo'shgan "hissasi"ni aniqlash va tadqiq etish lozimligi ham aytib o'tiladi. Bundan tashqari, huquqbuzarlikda jabrlanuvchi bo'lishga moyillikni taqozo qiluvchi shaxsning xislatlari va xulqi bilan ijtimoiy qilmish o'rtasidagi sababiy aloqadorlik ehtimolli xususiyatga egaligi ta'kidlanadi. Maqolada jabrlanuvchilar bilan profilaktika ishlarini olib borish davomida ularning ko'rsatma berish mobaynida xatoga yo'l qo'ymasliklari uchun doimo ularning jinoyat sodir etilayotgan vaqtdagi holatini inobatga olish juda muhim sanalishi haqida ham fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarliklar, viktimologiya, profilaktika, jinoyat, jazo, jabrlanish, milliy va xorijiy tajriba, xulq.

ВИКТИМОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОФИЛАКТИКА ПРЕСТУПЛЕНИЙ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Ниязова Саломат Сапаровна,
доктор юридических наук, профессор
кафедры «Уголовное право, криминология
и противодействие коррупции» Ташкентского
государственного юридического университета



Аннотация. В статье анализируется отечественный и зарубежный опыт виктимологической профилактики преступлений. Также в статье в рамках науки криминологии поставлена задача всестороннего исследования различных сторон потерпевшего и изучены мнения относительно того, что без потерпевшего не может быть преступного деяния. Автор высказывает мнение, что любое преступное деяние может причинить конкретный (материальный, социальный, физический, психический, духовный, прямой, косвенный и т. п.) вред потерпевшему, при этом от нарушений могут пострадать различные объекты или обладатели общественно значимых интересов, охраняемых законом. В статье также упоминается основная цель изучения криминальной виктимологии, необходимость определения и исследования роли и значения преступлений и потерпевших в возникновении этих ситуаций, их «вклада» в возникновение и развитие криминальной ситуации. Кроме того, подчёркивается, что причинно-следственная связь между характеристиками и поведением личности, диктующими склонность стать жертвой преступления, и социальным поступком носит вероятностный характер. В статье указывается, что при профилактической работе с потерпевшими очень важно всегда учитывать их состояние на момент совершения преступления, чтобы они не допустили ошибок при даче показаний.

Ключевые слова: правонарушение, виктимология, профилактика, преступление, наказание, виктимизация, национальный и зарубежный опыт, поведение.

VICTIMOLOGICAL CRIME PREVENTION: DOMESTIC AND FOREIGN EXPERIENCE

Niyozova Salomat Saparovna

Tashkent State University of Law
Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption,
Doctor of Law

Abstract. The article analyzes domestic and foreign experience in victimological crime prevention. Also, the article, within the framework of the science of criminology, sets the task of a comprehensive study of the various aspects of the victim and examines opinions regarding the fact that without a victim, there cannot be a criminal act. The author expresses the opinion that any criminal act can cause specific (material, social, physical, mental, spiritual, direct, indirect, etc.) harm to the victim, and various objects or holders of socially significant interests protected by law may suffer from violations. The article also mentions the main goal of studying criminal victimology: the need to determine and study the role and significance of crimes and victims in the occurrence of these situations and their "contribution" to the emergence and development of a criminal situation. In addition, it is emphasized that the cause-and-effect relationship between the characteristics and behavior of an individual, dictating the tendency to become a victim of a crime, and social action is probabilistic. In the article, it is said that when working preventively with victims, it is very important to always take into account

their condition at the time of the crime so that they do not make mistakes when giving evidence.

Keywords: offenses, victimology, prevention, crime, punishment, victimization, national, foreign, experience, behavior.

Kirish

Bizga ma'lumki, kriminologiya nazariyasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiriladigan profilaktik faoliyatning kimga qaratilganligiga ko'ra ikkiga: kriminologik va viktimologik profilaktika turlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan profilaktika chora-tadbirlari asosan jinoyat sodir etgan shaxslarga qaratilgan. Chunki g'ayriijtimoiy qilmishning motivi, maqsadning paydo bo'lishi, rivojlanishi va ularni amalga oshirishda shaxs asosiy rol ni o'ynaydi.

Ta'kidlash joizki, hozirda ko'p hollarda muayyan jinoyatlar tufayli ayrim toifadagi shaxslar, shuningdek, ba'zi kasb egalari, alohida turdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar jinoyat qurboniga yoki jabrlanuvchisiga aylanib qolmoqda. Shu bois endilikda o'zining salbiy xulqi, turmush tarzi va yurish-turishi bilan birga ijtimoiy mavqeyi va jismoniy holati, bajarayotgan mehnat faoliyati bilan bog'liq holda jinoyat qurboniga aylanishi mumkin bo'lgan shaxslarga nisbatan profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Material va metodlar

Mazkur maqolada huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi: milliy va xorijiy tajribaga doir masalalarni tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyoti usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

"Viktimologiya" atamasi ikki so'zdan: lotincha "victima" – "jabrlanuvchi" va yunoncha "logos" – "bilim, ta'limot" so'zidan tashkil topgan bo'lib, jabrlanuvchi haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi [1].

Kriminologiya doirasida jabrlanuvchining turli jihatlarini kompleks tadqiq qilish vazifasi qo'yiladi, chunki jabrlanuvchisiz jinoiy qilmish bo'lishi mumkin emas. Har qanday jinoiy qilmish jabrlanuvchiga muayyan (moddiy, ijtimoiy, jismoniy, ruhiy, ma'naviy, bevosita, bilvosita va h.k.) zarar yetkazadi. Huquqbuzarliklardan har xil obyektlar yoki qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy ahamiyatga molik manfaatlarning egalari jabrlanishi mumkin.

Viktimologiyada jabrlanuvchilarni o'rganishda asosan "jinoyat qurboni" va "jinoyat jabrlanuvchisi" degan o'xshash tushunchalardan foydalaniladi.

Jinoyat sodir etishning sabablar zanjirida jabrlanuvchi jiddiy rol o'ynaydi, degan fikr bugun paydo bo'lib qolgan emas, zero, davlat va huquq nazariyasi hamda tarixi manbalarida bunday yondashuv o'z aksini topgan.



Ta'kidlash joizki, huquqbuzarlikning sabablarini o'rganishda jabrlanuvchi haqidagi ta'limot muhim rol o'ynaydi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, huquqbuzarlik sodir etilishida jabrlanuvchining tutgan o'rnini ilmiy jihatdan bilish ham katta ahamiyatga egadir.

Shu sababli kriminal viktimologiyani o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad huquqbuzarlik va jinoyat jabrlanuvchilarining mazkur holatlar yuzaga kelishida tutgan o'rni, ahamiyati, jinoiy vaziyatning yuzaga kelishi va rivojlanishiga qo'shgan "hissasi"ni aniqlash va tadqiq etishdir. Buning uchun jabrlanuvchining shaxsi, uning huquqbuzarlik va jinoyat sodir etilishidan oldingi xulq-atvori to'g'risida tegishli umumiy axborot yig'ilishi zarur [2]. Buning uchun, birinchi navbatda, jabrlanuvchining shaxsi to'g'risidagi zarur ma'lumotlar, ayniqsa, jinoyatning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi xulq-atvor atroflicha o'rganib chiqilishi lozim [3].

Viktimologiya – jismoniy va yuridik shaxslarni jinoiy tajovuz obyektiga aylantiruvchi, jinoiy aloqadorlik tavsifi va darajasini belgilovchi ularga xos tipik xususiyatlar, shuningdek, jinoyat qurbonlarining mustaqil o'z manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish qobiliyati va uni kuchaytirish vositalari haqidagi ta'limotdir [4].

Viktimologik profilaktika shaxsni huquqbuzarlik va jinoiy xavfdan ogohlantiradi va uni o'z xulq-atvorini o'zgartirishga undash orqali uning jabrlanuvchi bo'lib qolishi xavfini kamaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Profilaktika chora-tadbirlari shaxsni jinoiy hujumdan himoyalashga, o'zgalarning xatolaridan saboq olishga chorlaydi, shaxs qanchalik kriminologik muhitda o'zini himoya qila olsa, uning jabrlanuvchiga aylanish xavfi shuncha kamayadi.

Huquqbuzarlik sodir etganlar va jabrlanuvchilarining xulqi, odobi, axloqi, ma'lumoti, ma'naviyati, ruhiy holati kabi shaxsining xususiyatlari haqidagi ko'rsatkichlar ko'pincha bir-biriga yaqin hisoblanadi [5]. Salbiy xulq-atvorli, ma'lumot darajasi, ma'naviyati past, ijtimoiy-ruhiy holati buzilgan odamlar o'z ehtiyojlarini qondirish yo'lida jinoyat qurboni bo'lish xavfi mavjud bo'lsa-da, o'z qilmishlarini davom ettiraveradilar. Tabiiyki, bunday kishilar turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklar, jumladan, jinoyat sodir etish bilan birga aksariyat hollarda jabrlanuvchiga ham aylanib qoladilar.

Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi bo'lishga moyillikni taqozo qiluvchi shaxsning xislatlari va xulqi bilan ijtimoiy qilmish o'rtasidagi sababiy aloqadorlik ehtimoliy xususiyatga ega. Tamagirlik, laqmalik xislatlari bo'lgan inson har doim ham firibgarlar bilan aloqaga kirishmaydi.

Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi bo'lishga moyil shaxs xulqining salbiy yo'nalish kasb etishi uning ijtimoiy-ruhiy, psixo-fiziologik xislatlari muayyan hayotiy vaziyat bilan aloqada bo'lgandagina vujudga keladi. Shuning uchun viktimologiya nafaqat shaxslarning viktimlik darajasini, balki viktimogen xususiyatga ega vaziyatni ham o'rganadi. Viktimogen vaziyat huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi bo'lishga moyil shaxsning muayyan xislatlari va xulq-atvori bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan aniq hayotiy vaziyat bo'lib, unda jabrlanuvchiga huquqbuzarlik yoki jinoiy yo'l bilan jismoniy, mulkiy yoki ma'naviy zarar yetkazilishi uchun paydo bo'ladigan imkoniyat hisoblanadi [3, 348-b.].

Huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish niyatining paydo bo'lishi va amalga oshishiga jabrlanuvchilarning shaxsiy, ruhiy xislatlari ularning xulqiga va huquqbuzar bilan o'zaro munosabatlariga xos xususiyatlari ko'maklashganligi sababli bugungi kunda bunday toifadagi fuqarolar muayyan qismining viktimligini kamaytirish profilaktikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak [6]. Jamiyatda huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi bo'lishga moyil odamlar qanchalik kam bo'lsa, shuningdek, ulardagi viktimlik darajasi past darajada bo'lsa, jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida samara berishi mumkin [7].

Jabrlanuvchilar bilan profilaktika ishlarini olib borish davomida ularning ko'rsatma berish mobaynida xatoga yo'l qo'ymasliklari uchun doimo ularning jinoyat sodir etilayotgan vaqtdagi holati va jinoyatchi shaxsini idrok etish xususiyatlarini inobatga olish juda muhim sanaladi. Ular his qilayotgan qo'rquv, g'azab, uyat, alam kabi hissiyotlar idrok etishning buzilishiga sharoit yaratib berishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan viktimlik holatlarida asosiy omillardan biri sifatida jabrlanuvchining muayyan xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Ta'kidlash joizki, shaxsning viktim holatga tushib qolishiga nafaqat o'zining subyektiv xususiyatlari, balki boshqa omillar ham ta'sir etadi, ya'ni shaxs o'zining shaxsiy xususiyatlari bilan bir qatorda ularning boshqa omillar bilan uyg'unlashuvi natijasida ham jinoyatlardan jabrlanishi mumkin.

Hozirgi kunda nafaqat mana shunday toifadagi, balki barcha aholi qatlamining turli xil huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish, ya'ni viktimlik darajasini pasaytirish dolzarb masala hisoblanadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunida viktimologik profilaktika masalasi o'z ifodasini topgan.

Mazkur qonunning "Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi" deb nomlangan 6-bobi talablari asosida "viktimologiya" tushunchasi qo'llanganda kriminal viktimologiyani nazarda tutish lozim. Chunki inson jabrlanib qolishining oldini olishga doir profilaktika sog'liqni saqlash, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish kabi sohalarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar tomonidan fuqarolarning yoki muayyan shaxslarning huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirishga yo'naltirilgan huquqbuzarliklar sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, shuningdek, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish orqali jabrlanish xavfini tug'dirayotgan omillar va huquqbuzarliklar haqida ma'lumotlar berish, bu borada ogohlikka, hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida olib boriladi.

Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasining vazifalari:

huquqbuzarliklar sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini o'rganish va tahlil qilish; huquqbuzarliklardan jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan



shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish; aholi o'rtasida jabrlanish xavfini tug'dirayotgan omillar va huquqbuzarliklar haqida targ'ibot-tashvilot ishlarini tashkil etish; huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuzasidan aholini ogohlik va hushyorlikka chaqirish; jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning ko'chmas mulkini qo'riqlash; huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoliga (viktimlikka) ega shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatish; huquqbuzarlikdan jabrlanganlarni ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish; viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish va boshqalar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, viktimologik profilaktika tushunchasining oydinlashtirilishi, maqsadi va vazifalarining aniq belgilanishi uning samarali chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishini, shuningdek, mazkur profilaktik chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilishi, ularga kompleks yondashilishi va ta'sirchanligini kafolatlaydi.

Viktimologik profilaktika ikkita asosiy jihat: maxsus va umumiylikning o'zaro bog'liqligini o'rganish darajasida olib boriladi.

Viktimologik profilaktikaning maxsus darajada olib borilishi jinoyat jabrlanuvchilarining xulq-atvorini jinoyatchida huquqqa xilof niyatning vujudga kelishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil sifatida o'rganiladi.

Umumiy darajada o'rganish esa viktim xulqning qonuniyat va sabablarini aniqlash imkonini beradi.

Umumiy oldini olish jamiyatning barcha bo'g'inlari (oilal, ta'lim, tibbiyot muassasalari, o'zini o'zi boshqarish organlari)ning faol ishtiroki orqali amalga oshirilsa, maxsus oldini olish bevosita ichki ishlar organlari, prokuratura, adliya, sud organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Viktimologik profilaktikaning asosiy maqsadi – jinoyat qurbonlariga bevosita ta'sir ko'rsatish orqali aniq jinoyatlarning oldini olish samaradorligini oshirish va jinoyatlardan jabr ko'rishga to'sqinlik qilishdir.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun talablari asosida umumiy, maxsus va yakka tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Demak, viktimologik profilaktika huquqbuzarlikdan jabrlanish xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar majmuidan iboratdir.

Bu borada xorijiy davlatlar tajribasini tahlil etadigan bo'lsak, G'arb davlatlarida viktimologik profilaktikaning quyidagi elementlari ajratib ko'rsatiladi va ularni shartli ravishda uch guruhga jamlash mumkin: shaxs yoki ijtimoiy guruhning viktimizatsiya jarayonlarining obyektiv sabablarini kamaytirish; aholining alohida toifadagi shaxslari orasida tushuntirish ishlarini olib borish, viktimologik targ'ibot; jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish, zararni qoplash va davlat tomonidan kompensatsiya to'lash tizimining mavjudligi [8].

G'arb davlatlarida viktimologik profilaktika davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatining maxsus va ajralmas

qismi bo'lib, viktimologik profilaktikani amalga oshiruvchi asosiy subyektlar davlat va uning boshqaruv organlari hisoblanadi.

G'arb viktimolog olimlarining fikriga ko'ra, jamoatchilik nazorati va o'zini o'zi boshqarish aholining viktimligi darajasini kamaytirish uchun jamiyatga ta'sir etishning eng samarali vositalaridan biri sanalgan [9].

Mazkur davlatlarda viktimologik profilaktikaning muhim subyektlar faoliyati jamoat tashkilotlari hisoblanadi. Bu tashkilotlar jinoyatlardan jabrlanganlar manfaatlarini himoya qilish va ularga yordam ko'rsatish hamda retsidiv viktimlikka qarshi kurashish maqsadida tashkil etilgan.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha ko'pgina Yevropa mamlakatlarida muvofiqlashtiruvchi organlar, masalan, Milliy kengashlar tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi sifatida huquqbuzarlik profilaktikasi bo'yicha ma'lumotlar to'plash, rejalashtirish, amalga oshirilgan huquqbuzarlik profilaktikasi dasturlarini baholab borish, politsiya va boshqa organlarning hamkorlikda ishlashini muvofiqlashtirish, mazkur faoliyatni amalga oshirishda aholi ishtirokini ta'minlash, OAV imkoniyatlaridan foydalangan holda ular bilan hamkorlik qilish, ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish va boshqalar e'tirof etiladi [10].

Jabrlanuvchilar huquq va manfaatlarini ta'minlash uchun bu tashkilotlar hukumat vakillari bilan rasmiy uchrashuvlar va suhbatlar uyushtiradi, parlament qo'mitalari va komissiyalari, vazirlar kengashi majlislarida ishtirok etadi, qonun loyihalarini tayyorlashda yordam ko'rsatishadi, parlament va hukumat vakillarini o'zlarining majlislari va syezdlariga taklif qiladi, jamoatchilik fikrini o'rganadi hamda OAV bilan hamkorlikda ish olib boradi. Davlat organlariga jinoyatlardan jabrlangan shaxslar nomidan maktublar jo'natadi va ma'ruzalar tayyorlaydi, davlatning yuqori darajadagi shaxslari bilan uchrashuvlar o'tkazilishini tashkillashtiradi [10].

Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini amalga oshirishga yo'naltirilgan jamoat tashkilotlari faoliyatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- tashkilotning tashkiliy tuzilmasi;
- viktimologik faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi va munosabatlari;
- taklif etilayotgan va ko'rsatilayotgan yordam qaratilgan obyektning xususiyati va boshqalar.

Ushbu tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasi, o'z navbatida, ular ko'ngilli ravishda tuzilgan nohukumat va hukumat tashkilotlariga bo'linadi.

Angliyada esa Jinoyatlardan jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlash milliy assotsiatsiyasi (National Association of Victim Support Schemes) 1979-yildan beri faoliyat ko'rsatib keladi va muvofiqlashtiruvchi organ vazifasini bajaradi.

Fransiyada Jinoyatlardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish Milliy instituti (National Institute for Assistance for Victims (INAVEM) 1986-yilda tashkil etilgan bo'lib, u 60 ga yaqin viktimologik tashkilotlar faoliyatlarini muvofiqlashtiradi [9].

Niderlandiyada Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash milliy tashkiloti (National Organisation for Victim Support (NOVS) faoliyat yuritisa, AQShda rasman mazkur

vazifani amalga oshiruvchi organ mavjud bo'lmasa-da, Jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish milliy markazi bajaradi [9].

Italiyada rasman viktimologik tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ mavjud emas, lekin terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, o'g'rilik, bosqinchilik va talonchilikdan aziyat chekkan fuqarolarga yordam ko'rsatish assotsiatsiyasi mazkur vazifani bajaradi.

Germaniya Federativ Respublikasida uchta darajadagi profilaktika ajratib ko'rsatiladi. Birinchi darajadagi profilaktikada jinoyatlar sodir etilishining asosiy sababi sifatida shaxsning huquqiy ongi pastligi va bu boradagi kamchiliklar ko'rsatiladi hamda bu kamchiliklarni to'ldirishga yo'naltirish mazkur darajadagi profilaktikaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ikkinchi darajadagi profilaktikada politsiya organlari shaxslarni turli ko'rinishdagi jinoyatlarni sodir etishlaridan huquqiy vositalar orqali tiyib tursa, uchinchi darajadagi profilaktikaga esa jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo qo'llash jarayonida ularning kelajakda jinoyat sodir etishlarining oldini olish bo'yicha amalga oshiriladigan profilaktika choratadbirlari kiradi.

Xorijiy davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari jinoyat sodir etilishida doimo bir tezisni targ'ibot qiladi, ya'ni jinoyatchi har doim himoyasiz, qo'riqlanmaydigan jabrlanuvchi yoki obyekt bilan uchrashadi hamda unga nisbatan jinoyat sodir etadi. Shu sababli unga qarshi turadigan xavfsizlik choralari aholiga targ'ib qilish zarur deb hisoblanadi [11].

Buyuk Britaniyada kriminal xavfsizlikning minimal standarti ishlab chiqilgan bo'lib, bunda aholining keng qatlami politsiya bilan hamkorlik qiladi.

Jamoatchilik vakillariga navbatchilik kunlari politsiya kiyimi, ya'ni mundiri beriladi, faqat bu formada hech qanday unvon va belgilar bo'lmaydi, shuningdek, aloqa vositalari, maxsus himoya vositalari (rezina tayoq, qo'l kishanlari) va avtomashina beriladi. Bunday ko'rinishdagi faoliyat davlat va jamiyatga ham moddiy, ham ma'naviy ko'mak bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

G'arbiy Yevropa va AQShda jinoyatlarning oldini olishda asosiy o'rinni viktimologik profilaktika egallaydi. Chunki mazkur faoliyat ko'p mablag' talab qilmaydi. AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida "Qanday qilib o'zini, oilasini, mulkini va turar joylarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish mumkin?" degan maqolalar va qo'llanmalar chop etiladi. Shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha jabrlanuvchilar va guvohlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida jinoyatlardan jabrlanganlar assotsiatsiyalari tuzilgan bo'lib, ularning a'zolari o'z yashash joylari atrofida patrullik vazifalarini amalga oshirishlari belgilab berilgan. Shu bilan bir qatorda, o'rta maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha viktimologiya asoslari haqida ma'ruzalar tashkil etilgan bo'lib, o'quvchi va talabalar trening mashg'ulotlarida o'zlarini himoya qilish va ekstremal holatlarda harakatlanish usullarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ko'rib chiqilgan tajribalardan quyidagilar umumlashtirildi [12]:

- profilaktikaning ustunligi shundaki, yaratilgan imkoniyatlar shaxsning noqonuniy harakat qilishiga yo'l bermaydi, agar biror-bir shunga o'xshash holat yuz bersa, bunday holatning boshqa takrorlanishiga yo'l qo'yilmasligi;

- milliy qonunchilik hamda davlat va mahalliy dasturlarning ishlab chiqilganligi va qabul qilinganligi;

- huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha yagona muvofiqlashtiruvchi organning tashkil etilganligi;

- huquqbuzarliklar va jinoyatlarni profilaktika qilish faoliyatida keng miqyosdagi aholi vakillarining jalb qilinganligi.

Ta'kidlash joizki, xorijiy davlatlarning profilaktika faoliyatining o'ziga xosligi ularning qaysi huquq oilasi vakili ekanligi bilan ham bog'liq. Chunki ulardagi jinoyatlarning tasniflanishi milliy qonunchiligimizga mos kelmasligini, shuningdek, ularning odat va an'alarining o'zgacha ekanligini hisobga olish zarur. Rivojlangan xorijiy davlatlarning har bir tajribasini milliy qonunchilikka tatbiq etish ham samara beravermaydi. Shu sababli o'rganilgan tajribalarni qonunlarga va albatta, mentalitetga moslagan holda tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosalar

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

- huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish orqali nafaqat fuqarolarning huquqbuzarliklardan jabrlanib qolishining oldini olishga, balki jamiyatda jinoyatchilikning kamayishiga ham erishiladi;

- huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llash kam mablag' talab etadi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshiradi;

- huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini maqsadli ravishda amalga oshirishda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish eng ustuvor masala hisoblanadi;

- fuqarolarning huquqbuzar shaxs bilan o'zaro aloqasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, huquqbuzarliklar tahlilini olib borishda jabrlanuvchi shaxsini chuqur o'rganib chiqmaslik natijasida viktimologik profilaktika ishlarini tashkil etish hamda amalga oshirishda ma'lum bir qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Bundan tashqari, birinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasining amal-dagi ayrim qonun hujjatlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Jumladan, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi va "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunlariga viktimologik profilaktika va subyektlar faoliyati bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish lozim bo'ladi.

Ikkinchidan, huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo'yicha bir qator tashkiliy muammolarni bartaraf etish hamda ularni takomillashtirish viktimologik profilaktika samaradorligiga erishish imkonini beradi.



Uchinchidan, fuqarolarning turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklardan jabrlanishlariga qarshi OAVda ko'rsatuvlar tashkil etish va unda aholining ishtirokini ta'minlash orqali jamoatchilik fikrini o'rganish mumkin.

To'rtinchidan, internet tarmog'ida fuqarolarning huquqbuzarliklardan jabrlanib qolishlarining oldini olishga qaratilgan ma'lumotlar, ko'rgazmali lavhalarni joylashtirish zarur.

Beshinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar va voyaga yetmaganlarning turli ko'ngilsiz hodisalar qurboni bo'lib qolayotgani, o'z joniga qasd qilishga majbur bo'lishlarining oldini olish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda ijtimoiy tarmoqlarda ularning jabrlanib qolishlariga qarshi qaratilgan ma'lumotlarni kiritib borish ishlarini amalga oshirish lozim.

REFERENCES

1. Frank L.V. Nekotoryye teoreticheskiye voprosy stanovleniya sovetskoy viktimologii [Some theoretical savollar formation of Soviet victimology]. Vladivostok, 1974, p. 15.
2. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.
3. Parfiyev Y.A. et al. Huquqbuzarliklar profilaktika faoliyati psixologiyasi [Psychology of crime prevention activities]. Tashkent, Akademiya Publ., 2015, pp. 341–342.
4. Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Y. Kriminologiya [Criminology]. General part. Tashkent, Akademiya Publ., 2014, pp. 179–180, 342, 348.
5. Khatkova F.X. Viktimologicheskiye aspekty zhenskoy prestupnosti [Victimological aspects of female crime]. Abstract of Phd thesis. Moscow, 2004, p. 186.
6. Niyozova S.S. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. *International Journal of Pharmaceutical Research*, 2020, Dec., vol. 12, suppl. iss., p. 528.
7. Nadtoka S.V. Viktimologicheskiye aspekty profilaktiki nasilstvennykh prestupleniy [Victimological aspects of the prevention of violent crimes]. AAbstract of PhD thesis. 1999, p. 207.
8. Zaborovskiy V.A. Obshhesotsialnyye mery preduprezhdeniya penitentsiarnoy prestupnosti [General social measures to prevent penitentiary crime]. Available at: <http://www.jourclub.ru/34/132910>
9. Voronin Y.A. Preduprezhdeniye prestupnosti v zarubezhnykh stranakh [Crime prevention in foreign countries]. *Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta – Bulletin of Chelyabinsk State University*, 2012, no. 27 (281), p. 86.

10. Konovalova I.A. Viktimologicheskaya stoykost kak sposob preduprezhdeniya prestupleniy nesovershennoletnikh [Victimological resilience as a way to prevent juvenile crimes]. *Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo oblastnogo universiteta – Bulletin of Moscow State Regional University*, 2012, no. 1. Available at: <http://www.evestnik-mgou.ru>

11. Baranovskiy N.A. Antideviantnaya politika: teoriya i sotsialnaya praktika [Anti-deviance policy: theory and social practice]. Minsk, Belaruskaya navuka Publ., 2011, pp. 54–55.

12. Golovkina A.G. Gosudarstvennaya sistema profilaktiki pravonarusheniy v sovremennoy Rossii [State system of crime prevention in modern Russia]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2011, p. 18.



DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.2./GJXB2455>
UDC: 343.2(81)(045)(575.1)

BRAZILIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA JAZONI YENGILLASHTIRISH INSTITUTI

Islomov Bunyod Ochilovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
"KDB Bank O'zbekiston" AJ bosh yuriskonsulti
ORCID: 0000-0001-8827-4900
e-mail: bunyodislomov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Braziliya Federativ Respublikasi jinoyat qonun hujjatlarida o'z aksini topgan jazoni yengillashtirish instituti, shu jumladan, jinoyat qonunining ortga qaytish kuchi, tamom bo'lmagan jinoyatlarning suiqasd bosqichida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda jazo tayinlash, voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari, mastlik holatida sodir qilingan jinoyatlar uchun javobgarlik, yengilroq jazo tayinlash tartibi, afv etish, amnistiya va marhamat ko'rsatishga doir me'yorlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazoni yengillashtirish, shartli hukm qilish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, yuridik shaxslarning ekologiyaga qarshi jinoyatlar yuzasidan jinoiy javobgarligiga doir ayrim masalalar, aqli norasolik va cheklangan aqli rasolik holatida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan taqdirda jazo tayinlash masalalari hamda maxsus qonun hujjatlari va mamlakat Jinoyat-protsessual kodeksining jinoiy jazoni yengillashtirishda tutgan o'rni tahlil qilingan. Yakuniy fikr sifatida Braziliya Federativ Respublikasining ayrim jinoyat-huquqiy me'yorlarini O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga tatbiq qilishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat qonunining ortga qaytish kuchi, yengillashtiruvchi holatlar, og'irlashtiruvchi holatlar, voyaga yetmagan shaxs, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, mastlik, jinoyatda ishtirokchilik, cheklangan aqli rasolik, aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv, afv etish, amnistiya, marhamat ko'rsatish, shartli hukm qilish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish, yuridik shaxs.

ИНСТИТУТ СМЯГЧЕНИЯ НАКАЗАНИЯ В УГОЛОВНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ ФЕДЕРАТИВНОЙ РЕСПУБЛИКИ БРАЗИЛИЯ

Исломов Бунёд Очилович,
самостоятельный соискатель Университета
общественной безопасности Республики Узбекистан,
главный юрисконсульт
АО «КДБ Банк Узбекистан»

Аннотация. В настоящей статье проведён анализ института смягчения наказания в уголовном законодательстве Федеративной Республики Бразилия, в том числе рассмотрены вопросы касательно обратной силы уголовного закона; назначения наказания за неоконченные преступления, совершённые в стадии покушения; назначения наказания с учётом смягчающих и отягчающих обстоятельств; особенности уголовной ответственности несовершеннолетних и ответственности за преступления, совершённые в состоянии опьянения; порядок назначения более мягкого наказания; особенности применения положений институтов помилования, амнистии и милосердия; смягчение наказания за преступления, совершённые в соучастии; условное осуждение; условно-досрочное освобождение от отбывания наказания; некоторые вопросы уголовной ответственности юридических лиц по преступлениям против экологии; назначение наказания за преступления, совершенные в состоянии невменяемости и ограниченной вменяемости; вопросы назначения наказания при заключении соглашения о признании вины, а также роль специальных законов и Уголовно-процессуального кодекса страны в смягчении уголовного наказания. В качестве итогового заключения разработаны предложения по имплементации некоторых уголовно-правовых норм Федеративной Республики Бразилия в Уголовный кодекс Республики Узбекистан.

Ключевые слова: обратная сила уголовного закона, смягчающие обстоятельства, отягчающие обстоятельства, несовершеннолетний, покушение на преступление, обстоятельства, исключающие преступность деяния, опьянение, соучастие в преступлении, ограниченная вменяемость, соглашение о признании вины, помилование, амнистия, милосердие, условное осуждение, условно-досрочное освобождение от отбывания наказания, юридическое лицо.

INSTITUTION OF MITIGATION OF PUNISHMENT IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF THE FEDERATIVE REPUBLIC OF BRAZIL

Islomov Bunyod Ochilovich,
Independent Researcher of the University
of Public Safety of the Republic of Uzbekistan,
Senior Legal Adviser of “KDB Bank Uzbekistan” JSC



Abstract. *This paper analyzes the institution of mitigation of punishment in the criminal legislation of the Federative Republic of Brazil, including retroactive effect of criminal law, sentencing for inchoated offences committed at the stage of attempt, sentencing taking into account mitigating and aggravating factors, the features of criminal liability of minors, liability for the offences committed in the state of intoxication, the procedure for more lenient sentencing, issues on determining of pardon, amnesty and grace, releasing from punishment for offences committed in complicity, probation, parole, some issues of criminal liability of legal persons for the offences against ecology, sentencing for offences committed in a state of insanity and diminished sanity, sentencing in case of conclusion for a plea agreement as well as the role of special laws. And the Code of Criminal Procedure Law of the state in mitigating criminal punishment, and as a final conclusion, provides proposals on the implementation of some of the criminal law norms of the Federative Republic of Brazil to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *retroactive effect of criminal law, mitigating factors, aggravating factors, minor, attempted offence, criminal defenses, intoxication, criminal complicity, diminished sanity, plea bargain, pardon, amnesty, grace, probation, parole, legal person.*

Kirish

Jahonda egallagan hududi (8 511 965 km²) bo'yicha beshinchi o'rinda turadigan [1], dunyodagi eng zamonaviy ekologiya qonunchiliklaridan biriga ega bo'lgan [2], ayni paytda BRIKS tashkiloti a'zolaridan biri – Braziliya Federativ Respublikasida jinoyat-protsessual qonunchiligini isloh qilish hamda jinoiy sud ish yurituvini raqamlashtirish yuzasidan mazkur tashkilotning a'zolari bilan hamkorlikda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda [3]. Qayd etilgan islohotlar so'zsiz 1940-yil 7-dekabrda qabul qilinib, 1942-yil 1-yanvardan kuchga kirgan, Umumiy (1–120-moddalar) va Maxsus (121–359-T-moddalar) qismlar hamda Yakuniy qoidalar (360–361-moddalar)dan tashkil topgan Jinoyat kodeksi (keyingi o'rinlarda – Braziliya JK)ni ham chetlab o'tmasligi shubhasiz. Shu bilan birga, jinoyatchilik dinamikasi borasida ham muammolar yo'q emas. Xususan, 2003-yildan buyon o'qotar quroldan foydalanib, zo'rlik ishlatish bilan sodir qilinadigan jinoyatlar va qurbonlar sonining keskin o'sishi kuzatilayotgani, qurbonlarning deyarli yarmini yoshlar tashkil etayotgani [4], korrupsiya [5] va feminitsid jinoyatchiligidagi o'sish [6, 7], jazoni ijro etish muassasalarining haddan ziyod to'lib ketganligi [8] ham xavotir uyg'otadi.

Biroq yuqoridagi kamchiliklarga qaramasdan, Braziliyaning boy qonunchilik tajribasiga ega ekanligi mazkur mamlakat jinoyat qonunchiligining o'rganilishiga qiziqish uyg'otadi.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqot doirasida analiz va ilmiy manbalarni kompleks tadqiq qilishdan iborat umumilmiy metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, barcha jinoyat qonun

hujjatlari rasmiy va birlamchi manbalar vositasida o'rganilgani tufayli mazkur ma'lumotlarni ishonchli materiallar sifatida e'tirof etish zarur.

Tadqiqot natijalari

Braziliya JK o'zida jazoni yengillashtirish institutining quyidagi tarkibiy qismlarini aks ettiradi.

Birinchidan, JK 2-moddasi, aybdorning ahvolini yengillashtirgan taqdirda jinoyat qonunining ortga qaytish kuchini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, JK 14-moddasida tamom bo'lmagan jinoyatlarning faqatgina suiqasd (port. "tentativa") bosqichi uchun jazo tayinlanishi, xususan, tamom bo'lgan jinoyat uchun nazarda tutilgan jazoning uchdan bir qismidan to uchdan ikki qismiga qadar yengillashtirilgan jazo tayinlanishini mustahkamlaydi. Bu borada JK 17-moddasida o'ziga xos "imkonsiz jinoyat" (port. "crime impossível") instituti nazarda tutilgan bo'lib, vositalarning mutlaq samarasizligi yoki obyektning mutlaq mos emasligi sababli jinoyat sodir qilish imkonsiz bo'lgan taqdirda sodir etilgan suiqasd jazoga sazovor bo'lmaydi.

Uchinchidan, kechki pushaymonlik (port. "arrependimento posterior"), ya'ni zo'rlik ishlatmasdan yoki shaxsga nisbatan jiddiy tahdidni yuzaga keltirmagan holda jinoyat sodir etgan aybdor ixtiyoriy ravishda shikoyat bildirilishidan avval yetkazilgan zararni qoplagan yoki ashyoni qaytarib bergan taqdirda, jazo miqdori uchdan bir qismidan to uchdan ikki qismiga qadar yengillashtirilishi zarur (16-modda).

To'rtinchidan, qilmishning qonunga xilofligi yuzasidan xato (port. "erro sobre a ilicitude do fato")ga yo'l qo'ygan shaxs, agar mazkur xatoga yo'l qo'yish muqarrar bo'lsa, jazodan ozod etiladi; biroq ushbu xatoning oldini olish mumkin bo'lsa, unga nisbatan jazoning miqdori oltidan bir yoki uchdan bir qismiga yengillashtirilishi mumkin bo'ladi (21-modda).

Beshinchidan, oxirgi zarurat (port. "estado de necessidade") qilmishning jinoiyligini istisno qilsa-da, ushbu holat tahdidga ro'baro' kelish qonuniy majburiyati hisoblangan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Tahdid ostidagi huquqni qurbon qilishning talab etilishi oqilona sanalgan taqdirda, jazo miqdori uchdan bir qismidan to uchdan ikki qismiga qadar yengillashtirilishi mumkin (24-modda).

Oltinchidan, JK 26-moddasiga ko'ra, aqli norasolik jazo tayinlanishini istisno qilsa-da, cheklangan aqli rasolik jazo miqdorining uchdan bir qismidan to uchdan ikki qismiga qadar yengillashtirilishiga sabab bo'ladi.

Yettinchidan, o'n sakkiz yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar (port. "menores de dezoito anos") jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar hamda ularga nisbatan maxsus qonunlar qo'llanadi (27-modda). 1979-yil 10-oktabrda qabul qilingan Voyaga yetmaganlar kodeksida nafaqat o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar, balki o'n sakkiz yoshdan yigirma bir yoshgacha bo'lganlarga yordam ko'rsatish, himoyalash va nazorat qilish, shu jumladan, javobgarlikka tortish va boshqa masalalar ham ko'zda tutilgan [9, 10].

Sakkizinchidan, ixtiyoriy yoki qasddan mastlik (port. "embriaguez") holati javobgarlikdan ozod etmasa-da, aybdor tasodif yoki fors-major holati tufayli spirtli

ichimliklar ta'siri ostida yuzaga kelgan mastlik holatida harakat yoki harakatsizlik sodir etish paytida qilmishning huquqqa xiloflik xususiyatini to'liq anglay olish yoki mazkur anglashga muvofiq ravishda o'zini tuta olish imkoniga ega bo'lmagan taqdirda, jazo miqdori uchdan bir qismidan to uchdan ikki qismiga qadar yengillashtirilishi mumkin bo'ladi (28-modda).

To'qqizinchidan, JK 29 (1-§)-moddasida belgilanishicha, jinoyatda ishtirokchilik arziyas bo'lgan taqdirda, jazoning miqdori oltidan bir qismidan to uchdan bir qismiga qadar yengillashtirilishi mumkin sanaladi.

O'ninchidan, JK 65-moddasida jazoni quyidagi doimiy "yengillashtiruvchi holatlar" (port. "circunstâncias atenuantes") ro'yxati o'z ifodasini topgan:

1. Aybdorning qilmish sodir etish paytida yigirma bir yoshga to'lmagan yoki jazo tayinlash vaqtida yetmish yoshdan oshganligi.

2. Qonunni bilmaganlik.

3. Aybdor:

a) ijtimoiy yoki axloqiy ahamiyat kasb etgan sabablar tufayli jinoyat sodir etganligi;

b) jinoyat sodir etilishidan so'ng zudlik bilan o'z ixtiyoriga ko'ra va samarali tarzda uning oqibatlarining oldini olishga yoki yengillashtirishga harakat qilgani yoxud sudgacha zararni bartaraf etgani;

d) qarshilik ko'rsatish mumkin bo'lgan majburlash yoki yuqori turuvchi organ buyrug'ini bajarish sababli yoxud jabrlanuvchining adolatsiz harakati tufayli yuzaga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish tufayli jinoyat sodir etganligi;

e) hokimiyat organiga o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish haqida arz qilganligi;

f) g'alayon ko'targan olomon ta'siri ostida jinoyat sodir qilganligi, agar jinoyatchining o'zi mazkur g'alayonni provokatsiya qilmagan bo'lsa.

O'z navbatida, JK 61-moddasida "og'irlashtiruvchi holatlar" (port. "circunstâncias agravantes") ro'yxati hamda 62-moddasida "og'irlashtiruvchi holatlarning raqobati" (port. "agravantes no caso de concurso de pessoas") mavjud bo'lgan taqdirda jazo tayinlash tartibi aks etgan.

O'n birinchidan, JK 66-moddasiga asosan, qonunda to'g'ridan to'g'ri ko'zda tutilmagan bo'lsa-da, jinoyatdan avvalgi va keyingi tegishli holatlar asosida jazo yengillashtirilishi mumkindir.

O'n ikkinchidan, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarning raqobati (port. "concurso de circunstâncias agravantes e atenuantes") tufayli jazo, ustuvor mavqega ega bo'lgan holatlar, ya'ni jinoyat motivlari, jinoyatchining shaxsi va retsidivdan kelib chiqadigan holatlar belgilab beradigan chegaraga yaqinlashtirilishi zarur bo'ladi (67-modda).

O'n uchinchidan, jazoning asosiy muddati ushbu kodeksning 59-moddasida qayd etilgan mezonlar (jazo tayinlashning umumiy asoslari)ga muvofiq aniq-lashtirilganidan so'ng yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar hamda nihoyat, jazo muddatini kamaytirish yoki ko'paytirishning sabablari hisobga olinadi. Qayd etilgan ko'paytirish va kamaytirishning mazkur kodeksning Maxsus qismida keltirilgan sabablari o'zaro mos kelib qolgan taqdirda, sud faqatgina bir nafar

ko'paytirish yoki faqat bir nafar kamaytirish bilan cheklanishi mumkin bo'lgani holda bunda eng ko'p ko'paytiradigan yoki kamaytiradigan sabab ustun mavqega ega bo'ladi (68-modda).

O'n to'rtinchidan, JK Maxsus qismida, qoida tariqasida, jinoyat tarkibini aks ettiruvchi moddaning alohida qismi "yengilroq jazo tayinlash tartibi" (port. "caso de diminuição de pena")ga quyidagicha bag'ishlanadi:

1. Oddiy odam o'ldirish (port. "homicídio simples") uchun olti yildan yigirma yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan bo'lib, jinoyatchi tegishli ijtimoiy yoki axloqiy ahamiyat kasb etadigan sabablar bois yoxud jabrlanuvchining adolatsiz provokatsiyasidan so'ng darhol kuchli ruhiy hayajonlanish yoxud ayrim mualliflar ta'kidlaganidek, affekt holati sababli [11] jinoyat sodir etgan taqdirda, sud jazo muddatini oltidan bir qismidan to uchdan bir qismiga qadar yengillashtirishga haqli (121(1-§)-modda).

2. Badanga tan jarohati yetkazish (port. "lesão corporal") jinoyati tegishli ijtimoiy yoki axloqiy ahamiyat kasb etadigan motiv sababli yoxud jabrlanuvchining adolatsiz provokatsiyasidan so'ng darhol kuchli ruhiy hayajonlanish sababli sodir etilgan taqdirda, sud jazo muddatini oltidan bir qismidan to uchdan bir qismiga qadar yengillashtirishga haqli (129(4-§)-modda).

3. Odam savdosi (port. "tráfico de pessoas") jinoyatini sodir qilgan shaxs birinchi marotaba jinoyat sodir qilgan hamda jinoiy tashkilot a'zosi hisoblanmagan taqdirda, jazo miqdori uchdan bir qismidan to uchdan ikki qismiga qadar yengillashtiriladi (149-A(2-§)-modda).

4. O'g'rilik (port. "furto") jinoyati aybdor tomonidan birinchi marotaba sodir etilgan, o'g'irlangan ashyo esa yuqori qiymatga ega bo'lmagan taqdirda, sud ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'rniga qamoq jazosini tayinlash, uning muddatini uchdan bir qismidan to uchdan ikki qismiga qadar yengillashtirish yoxud jarima tariqasidagi jazoning o'zini tayinlash vakolatiga ega bo'ladi (155(2-§)-modda).

5. Odam o'g'irlash orqali tovlamachilik qilish (port. "extorsão mediante seqüestro") jinoyati ishtirokchilikda sodir etilgan hamda aybdor ushbu jinoyat to'g'risida hokimiyat organlariga xabar berib, o'g'irlangan jabrlanuvchining ozod qilinishiga ko'maklashgan taqdirda, jazo muddati uchdan bir qismidan to uchdan ikki qismiga qadar yengillashtiriladi (159(4-§)-modda).

6. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish (port. "peculato") jinoyatining boshqa bir shaxs tomonidan sodir etilishiga ko'maklashgan mansabdor shaxs yetkazilgan zararni, shikoyat qilib bo'lmaydigan hukm chiqarilishidan avval bartaraf etgan taqdirda, u jazodan ozod etiladi, biroq yetkazilgan zarar hukm chiqarilganidan so'ng bartaraf etilgan taqdirda, tayinlangan jazo miqdori teng yarmiga yengillashtiriladi (312(2-3-§)-modda).

7. Ijtimoiy sug'urta uchun to'lovlarni amalga oshirishdan bo'yin tovlash (port. "sonegação de contribuição previdenciária") jinoyatida ish beruvchi yuridik shaxs bo'lmagan va uning bir oylik ish haqi 1 510,00 (bir ming besh yuz o'n) realdan ortiq bo'lmagan taqdirda, sud jazo miqdorini uchdan bir qismi yoki teng yarmiga

yengillashtirishi yoxud faqat jarima jazosini tayinlashi mumkin bo'ladi (337-A(3-§)-modda).

8. Tuhmatli ayblov (port. "denúnciação caluniosa"), ya'ni aybsizligini avvaldan bilgan holda boshqa bir shaxsni huquqbuzarlik sodir etishda ayblash jinoyati sodir etilgan taqdirda, jazo miqdori teng yarmiga yengillashtiriladi (339(2§)-modda).

O'n beshinchidan, JK 12-moddasiga ko'ra, ushbu kodeksning umumiy qoidalari maxsus qonunlarga nisbatan (mazkur maxsus qonunlar boshqacha tartibni nazarda tutmagan taqdirda) qo'llanishining belgilanishi, JK jinoyat qonunchiligining yagona manbayi emasligini ko'rsatadi. Shuningdek, maxsus qonunchilik (port. "legislação especial")ka ushbu kodeksning 27-, 40-, 45-, 111-moddalarida ham havola qilinib, 1953-yil 5-yanvarda qabul qilingan "Davlatga va ijtimoiy hamda siyosiy tartibga qarshi jinoyatlar to'g'risida"gi, 1967-yil 9-fevralda qabul qilingan "Matbuotga qarshi jinoyatlar to'g'risida"gi, 2013-yil 1-avgustda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, 2013-yil 2-avgustda qabul qilingan "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risida"gi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir. Qo'shimcha ravishda qayd etish joizki, yuridik shaxslar ham ekologiyaga qarshi jinoyatlarning subyekti sanalib, bunda korrupsiya elementlari ham kuzatiladi [12–14].

Shuningdek, ayrim mualliflarning ta'kidlashicha, Braziliya huquq tizimiga "aybni bo'yniga olish to'g'risida kelishuv" (ing. "plea bargaining") va "javobgarlikni yengillashtirish haqidagi kelishuvlar" (ing. "leniency agreements") ko'chirib o'tkazilishi asosiy ikki muammoga olib keldi: jinoyat ishlari bo'yicha kelishuvlar tuzishga doir huquqiy madaniyatning mavjud emasligi hamda mazkur kelishuvlarni muhokama etish va tatbiq qilish uchun mas'ul muassasalarning o'zaro tortishuvlari. Oqibatda tartibsizlik yuzaga keldi. O'z navbatida, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (ing. Organisation for Economic Co-operation and Development – OECD) ko'plab a'zo-mamlakatlarida qabul qilingan va ma'lumot taqdim qiluvchi, ya'ni informatorlar (ing. "whistleblowers")ni himoya qilishga qaratilgan maxsus qonun Braziliyada mavjud emas edi [15].

O'n oltinchidan, mamlakat Konstitutsiyasining 84(XII)-moddasiga ko'ra, Prezident zarurat tug'ilgan taqdirda, qonun bilan ta'sis etilgan organlarni tinglaganidan so'ng, afv etish va jazoni yengillashtirishdan iborat yakka huquqqa ega hisoblanadi. E'tiborlisi, Konstitutsiyaning 5(XLIII)-moddasida, marhamat ko'rsatish, afv etish yoxud amnistiya qo'llanmaydigan hamda garov evaziga ozodlikka chiqarilmaydigan jinoyat tarkiblari nazarda tutilgan bo'lib, qiynash, giyohvandlik moddalari va shunga o'xshash moddalarni qonunga xilof ravishda tashish, terrorizm hamda og'ir jinoyat sifatida belgilanadigan qilmishlar shular jumlasidandir. Afv etish (port. "do indulto") tartibi, o'z navbatida, JK 106-, 107-, 120-moddalarida hamda Jinoyat-protsessual kodeksining 52-53-, 56-, 58-, 741-moddalarida, amnistiya (port. "da anistia") qo'llash tartibi esa JK 107-moddasida va JPKning 742-moddasida ko'zda tutilgan.

Braziliyada, shuningdek, yuqorida qayd etilgan afv etish va amnistiya institutlari bilan bir qatordan joy olgan hamda JK 107-moddasi va JPK 734-, 738-moddalarida

nazarda tutilgan “marhamat ko’rsatish” (port. “da graça”) institutidir. Mazkur institut mahkum yoki xalqning har qanday vakilining, Penitensiar kengash yoki prokuraturaning iltimosnomasi asosida, shuningdek, Prezident tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

O’n yettinchidan, shartli hukm qilish (sinov rejimiga joylashtirish) (port. “Da Suspensão Condicional Da Pena”) instituti JK 50-, 77–82-moddalarida va JPK 696–709-moddalarida jazoni o’tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (port. “Do Livramento Condicional”) instituti esa, JK 64-, 83–90-, 94-, 97-, 112–113-moddalarida hamda JPK 710–733-moddalarida o’z ifodasini topgan. O’z navbatida, yuridik mazmuniga ko’ra bir-biridan farq qiluvchi mazkur institutlar Braziliyada mahkumlarga taqdim etiladigan imtiyozlar qatoriga kiritiladi [16].

Tadqiqot natijalari tahlili

Braziliya JKda jazoni yengillashtirish institutini tahlil qilishda milliy olimlar va MDH doirasidagi mualliflarning tadqiqotlari deyarli uchramasligini inobatga olgan holda polemikadan biroz chekinib, tadqiqot natijalari tahlili yuzasidan o’z fikr-mulohazalarimizni bayon qilamiz.

Birinchidan, qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki boshqa ko’rinishda jinoiy qilmish sodir etgan shaxsning manfaatiga xizmat qiluvchi jinoyat qonunining ortga qaytish kuchiga ega ekanligi mustahkamlangan.

Ikkinchidan, Braziliya JK tamom bo’lmagan jinoyat bosqichlari qatoridan faqatgina jinoyatga suiqasd qilganlik jazoni yengillashtirish tartibini belgilagan holda jinoyatga tayyorgarlik bosqichi tilga olinmaydi. Jinoyatga suiqasd bosqichi yuzasidan jazodan ozod bo’lish imkonini beruvchi “imkonsiz jinoyat” institutining ilgari surilishi esa Braziliya JKning o’ziga xos xususiyatlaridan biri sanaladi. Xuddi shuningdek, huquqiy tabiati jihatidan “jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish” institutiga o’xshash “kechki pushaymonlik” instituti esa ko’plab MDH mamlakatlari, xususan, O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi singari jazo qo’llanishini istisno etmay, faqatgina jazoni yengillashtirish tartibini ko’zda tutadi. Shu o’rinda ayrim MDH mamlakatlarida, jumladan, Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksida “jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish” instituti o’rnatilgan hollarda ham jazodan ozod qilish, ham jazoni yengillashtirishga doir me’yorlarni nazarda tutishini ta’kidlash joiz.

Uchinchidan, Braziliya JK qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi bir qancha holatlarni ham o’z ichiga oladi:

a) yuridik xato yengillashtiruvchi holatlar ro’yxatida keltirilgan bo’lsa-da, unga yo’l qo’yg’an shaxsga nisbatan ham jazodan ozod qilish, ham jazoni yengillashtirish tartibi o’rnatiladi;

b) oxirgi zarurat ham qilmishning jinoiyligini istisno qilish, ham jazoni yengillashtirish imkonini ko’zda tutadi;

d) aqli norasolik holatida jinoyat sodir etilishi qilmishning jinoiyligini istisno qilgan holda, cheklangan aqli rasolik holatida jinoiy qilmish sodir qilgan shaxsga nisbatan jazo yengillashtirilishi mumkin bo’ladi.



To'rtinchidan, voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi alohida qabul qilingan Voyaga yetmaganlar kodeksi bilan tartibga solinib, ushbu kodeksning ayrim me'yorlari nafaqat o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar, balki o'n sakkiz yoshdan yigirma bir yoshgacha bo'lganlarga nisbatan ham tatbiq etilishi belgilangan.

Beshinchidan, mastlik holatida jinoyat sodir etgan shaxsga, ma'lum bir shartlarga rioya qilingan taqdirda, jazoni yengillashtirish imkoniyati taqdim qilinishi mumkin.

Oltinchidan, jinoyatda ishtirokchilik uchun ham muayyan shartlarga rioya qilingan taqdirda, jazoni yengillashtirish qo'llanishi mumkin hisoblanadi.

Yettinchidan, Braziliya JK yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar ro'yxatini, shuningdek, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarning raqobati hamda alohida og'irlashtiruvchi holatlarning raqobati sharoitida jazo tayinlash qoidalarini belgilaydi. Xususan, yengillashtiruvchi holatlar ro'yxatida keltirilgan holatlarning aksariyati O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 55-moddasi birinchi qismidagi ro'yxatda qayd etilgan holatlarga mos keladi. Shu o'rinda yengillashtiruvchi holatlarning ro'yxati ochiq ekanini ta'kidlash darkor.

Sakkizinchidan, Braziliya JK 66-moddasida mustahkamlangan qoida sud ixtiyori-ning nihoyatda kengligini izohlaydi.

To'qqizinchidan, Braziliya JK Maxsus qismida yengillashtiruvchi jinoyat tarkiblarini tuzishda o'ziga xos yo'ldan borilgan bo'lib, oddiy odam o'ldirish, badanga tan jarohati yetkazish, odam savdosi, o'g'rilik, odam o'g'irlash orqali tovlamachilik qilish, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, ijtimoiy sug'urta uchun to'lovlarni amalga oshirishdan bo'yin tovlash hamda tuhmatli ayblov jinoyatlari tarkiblarining har birida yengilroq jazo tayinlashga doir alohida band mavjudligiga guvoh bo'lamiz.

O'ninchidan, Jinoyat kodeksi jinoyat huquqining yagona manbasi sanalmaydi. Bu borada mamlakat Konstitutsiyasi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Voyaga yetmaganlar kodeksi, shuningdek, ko'plab maxsus qonunlar jinoyat huquqiga doir me'yorlarni o'z ichiga oladi. Jinoyat kodeksi va maxsus qonunlar (masalan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Matbuotga qarshi jinoyatlar to'g'risida"gi va b.)ning o'zaro munosabati yuzasidan alohida me'yor ushbu kodeksning 12-moddasida o'z ifodasini topgan.

O'n birinchidan, Braziliya qonunchiligida "aybni bo'yniga olish to'g'risida kelishuv" instituti nazarda tutilmagan bo'lsa-da, afv etish, amnistiya va marhamat ko'rsatish, shartli hukm qilish hamda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish institutlari mustahkamlangan.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Braziliya JKning quyidagi me'yorlari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga tatbiq etilishi, fikrimizcha, milliy jinoyat qonunining takomillashuvi va zamonaviylashuviga xizmat qiladi:

I. Braziliya JK 17-moddasida o'z ifodasini topgan "imkonsiz jinoyat" institutini O'zbekiston Respublikasi JK 58-moddasiga yangi uchinchi qism sifatida kiritish va

amaldagi uchinchi va to'rtinchi qismlarni tegishli to'rtinchi va beshinchi qism sifatida bayon qilish, shuningdek, Braziliya JK 29(1-§)-moddasida o'z ifodasini topgan "arzimas ishtirokchilik" uchun jazoni yengillashtirish tartibini yangi oltinchi qism sifatida kiritishni taklif qilamiz:

58-modda. Tamom bo'lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash

(1-q.) Sud tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qilgan holda jinoyatning og'ir-yengilligini, jinoiy niyat amalga oshirilishining darajasini va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablarini ham hisobga oladi.

(2-q.) Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori ushbu kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rtinchi qismidan oshmasligi kerak. Mazkur qoida:

a) o'ta xavfli retsidivistlarga, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a'zolariga nisbatan;

b) tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek, quyidagilar bilan:

javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish bilan;

o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan;

yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurolini, bunday qurol yaratishda foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan materiallarni hamda uskunalarni, radioaktiv materiallarni kontrabanda qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar uchun jazolar tayinlashda qo'llanmaydi.

(3-q.) *Qo'llangan vositalarning mutlaq samarasizligi yoki obyekt yoxud predmetning mutlaq mos emasligi sababli jinoyat sodir qilish imkonsiz bo'lgan taqdirda, jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik javobgarlikni istisno qiladi.*

(4-q.) Tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi mumkin emas.

(5-q.) Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda sud har qaysi aybdorning jinoyatda ishtirok etganlik xususiyati va darajasini hisobga oladi. Har qaysi ishtirokchining shaxsiga tegishli bo'lgan yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar sud tomonidan faqat shu ishtirokchining o'ziga jazo tayinlashda hisobga olinadi.

(6-q.) *Jinoyatda ishtirokchilik arzimas bo'lgan taqdirda, ushbu kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning oltinchi qismidan to'rtinchi qismiga qadar bo'lgan miqdordagi yoxud muddatdagi jazo tayinlanadi.*

II. Braziliya JK 26-moddasiga ko'ra, cheklangan aqli rasolik holatida sodir etilgan jinoyat uchun jazoni yengillashtirishning belgilangan tartibini O'zbekiston



Respublikasi JK 18¹-moddasiga yangi ikkinchi qism sifatida kiritish va amaldagi ikkinchi qismni tegishli uchinchisi qism sifatida bayon qilishni taklif qilamiz:

18-1-modda. Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsning javobgarligi

(1-q.) Jinoyat sodir etish vaqtida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini to'liq darajada anglay olmagan yoki ularni boshqara olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortiladi.

(2-q.) *Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan holatda jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan ushbu kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning uchdan bir qismidan to uchdan ikki qismiga qadar bo'lgan miqdordagi yoxud muddatdagi jazo tayinlanadi.*

(3-q.) Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan jazo bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanishi mumkin.

III. Braziliya JK 67-moddasiga muvofiq, "og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarning raqobati" holatida jazo tayinlashning o'rnatilgan tartibini O'zbekiston Respublikasi JKga yangi 57³-modda sifatida kiritishni taklif qilamiz:

57³-modda. Jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarning raqobati holatida jazo tayinlash

Sodir etilgan qilmishda bir paytning o'zida ham yengillashtiruvchi, ham og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, sud tomonidan jinoyat motivlari, jinoyatchining shaxsi va retsidivdan kelib chiqadigan holatlarga ustuvorlik beriladi.

REFERENCES

1. Klebanov L.R., Polubinskaya S.V. Prestupnost' v Brazili: osobennosti, protivodeystviye, napravleniya issledovaniy [Crime in Brazil: Features, counteraction, research directions]. *Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta – Bulletin of Tomsk State University*, 2022, no. 474, pp. 300–311. DOI: 10.17223/15617793/474/32
2. Gladyshev D.Yu. Nekotoryye aspekty ugovnoy otvetstvennosti za prestupleniya, posyagayushhiye na zhivotnyy mir, po zakonodatel'stvu Brazili [Some Aspects of Criminal Liability for Offences that Infringe on Wildlife under Brazilian Legislation]. *Vestnik Nizhegorodskoy akademii MVD Rossii – Bulletin of the Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2012, no. 18, pp. 162–166.
3. Morozova Yu.A. Mezhdunarodnoye sotrudnichestvo stran – uchastnikov BRIKS v ramkakh tsifrovizatsii ugovnogo sudoproizvodstva [International Cooperation of the BRICS Member Countries in the Framework of Digitalization of Criminal Proceedings]. *Vestnik Juzhno-Ural'skogo gosudarstvennogo universiteta – Bulletin of the South Ural State University*. Ser. Law. 2022, vol. 22, no. 1, pp. 30–34. DOI: 10.14529/law220104

4. Shelkovnikova E.D. Arms trafficking in the Federal Republic of Brazil: law and reality [Arms Trafficking in the Federal Republic of Brazil: Law and Reality]. *Nauchnyy portal MVD Rossii – Scientific portal of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2009, no. 3, pp. 127–130.

5. Kobets P.N., Klimenko A.I., Brazhnikov D.A. Bor'ba s korruptsiyey v Brazili: opyt i problemy [Fighting Corruption in Brazil: Experiences and Challenges]. *Vestnik Moskovskogo universiteta MVD Rossii – Bulletin of the Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2020, no. 5, pp. 97–103. DOI: 10.24411/2073-0454-2020-10271

6. Klebanov L.R., Smirnova I.V. O nekotorykh merakh protivodeystviya feminisidu: opyt Brazili [On Some Measures to Counteract Femicide: the Experience of Brazil]. *Vestnik Omskogo universiteta – Bulletin of Omsk University*, Ser. Law, 2022, vol. 19, no. 4, pp. 85–96. DOI: 10.24147/1990-5173.2022.19(4).85-96

7. Havier F., Neto F. Opyt brazil'skogo zakonodatel'stva v oblasti bor'by s domashnim nasiliyem: teoriya i praktika [New Brazil's Legislation against Domestic Violence: Theory and Practice]. *Vestnik Universiteta imeni O.E. Kutafina – Bulletin of the University after O.E. Kutafin*, 2021, no.1, pp. 92-102. DOI: 10.17803/2311-5998.2021.77.1.090-10

8. Ovchinnikov S.N. Razvitiye i sovremennoye sostoyaniye penitentsiarnoy sistemy Federativnoy Respubliki Braziliya [Development and Current State of the Penitentiary System of the Federative Republic of Brazil]. *Probely v rossijskom zakonodatel'stve – Gaps in Russian Legislation*, 2018, no. 6, pp. 191–193.

9. Shecaira S.S. Brazil. Criminal Responsibility of Minors in National and International Legal Orders. *International Review of Penal Law*, 2004, January, vol. 75, pp. 201–212. DOI 10.3917/ridp.751.0201

10. Achutti D., Pallamolla R. Restorative Justice in Juvenile Courts in Brazil. *A Brief Review of Porto Alegre and São Caetano Pilot Projects*. Univ. Psychol. Bogotá, Colombia, 2012, Oct. – Dec., vol. 11, no. 4, pp. 1093–1104.

11. Belikova K.M. K voprosu ob evtanazii v stranakh BRIKS: pravovyye i moral'no-eticheskiye ramki v Brazili, Rossii i Kitae [On the Issue of Euthanasia in the BRICS Countries: Legal and Moral and Ethical Frameworks in Brazil, Russia and China]. *Pravo i politika – Law and Politics*, 2020, no. 7, pp. 13–34. DOI: 10.7256/2454-0706.2020.7.33176

12. Antonietto C.M.C., Guedes de Castro R. The Criminal Liability of Legal Entities in Brazil in Light of the New Anti-Corruption Law. *Eurasian Forum on Law and Economics*, EFLE 2015, February 19-21, Tbilisi, Georgia European Scientific Institute, ESI, 2014, 191 p., pp. 63–70.

13. Januário T.F.X. Criminal Liability for Legal Entities: A Comparative Study Between Spain, Portugal and Brazil. *Portuguese Law Review*, 2018, October, pp. 191–224.

14. De Assis Machado M.R. Corporate criminal liability in Brazil: the paradox of its interpretation by Brazilian Courts. *Artigo DIREITO GV (Working Paper)*, 65, abr 2011, 18 p.



15. Sanchez-Badin M.R., Sanchez-Badin A. Anticorruption in Brazil: From Transnational Legal Order to Disorder. *AJIL Unbound*, 2019, vol. 113, pp. 326–330. DOI: 10.1017/aju.2019.58

16. Oliveyra T.B. Struktura sudebnoy vlasti v Brazili: ugolovnoye presledovaniye v svete nedavnikh reform Ugolovno-protsessual'nogo kodeksa [The Structure of the Judiciary in Brazil: Criminal Prosecution in the Light of Recent Reforms of the Criminal Procedure Code]. *Vestnik Moskovskogo universiteta – Bulletin of the Moscow University*, Ser. Law, 2018, no. 2, pp. 51–66.

DOI: [https://dx.doi.org/ 10.51788/tsul.ccj.3.2./XCNV1020](https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.2./XCNV1020)
UDC: 347.965(045)(575.1)

O'ZBEKISTONDA ADVOKATNING JINOYAT-PROTSESSUAL VAKOLATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Toshev Otabek Sodiqovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va
korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0009-0001-3851-6737
e-mail: OtabekToshev0610@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada advokatning jinoyat-protsessual vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog'liq huquqiy muammolar ochib berilgan. Ushbu sohaga doir O'zbekiston va xorijiy davlatlar qonunchiligi qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada advokatning jinoyat-protsessual vakolatlarini kengaytirishga oid takliflar ilgari surilgan. Qonunchilikda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan mazkur jinoyat ishi o'z yurituvida bo'lgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan arizalar, tushuntirishlar yoki ko'rsatuvlar olish tartibi joriy etildi. Jinoyat ishlarida himoyachi ishtirokining majburiyligi kengaytirildi, ya'ni aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan ishlarda, dastlabki eshituv o'tkazilayotgan ishlarda, o'ta og'ir jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga oid ishlarda, shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, shuningdek, qamoqda saqlash, uy qamog'i muddatini uzaytirish masalasi ko'rib chiqilayotganda himoyachi ishtiroki majburiyligi belgilandi. Shuningdek, gumon qilinuvchi u amalda ushlangan yoki jinoyat joyida ushlash bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbiri amalda yakunlangan paytdan boshlab himoyachi olish imkoniga ega bo'ldi.

Kalit so'zlar: advokat, himoyachi, jabrlanuvchining vakili, dalillarni yig'ish, xususiy detektivlik faoliyati, advokatning yordamchisi va stajori, guvoh, tergov harakatining bayonnomasi.

ВОПРОСЫ РАСШИРЕНИЯ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ПОЛНОМОЧИЙ АДВОКАТА В УЗБЕКИСТАНЕ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Тошев Отабек Содикович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
преподаватель кафедры «Уголовное право,
криминология и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье раскрываются правовые проблемы, связанные с реализацией адвокатом своих уголовно-процессуальных полномочий. Проведён сравнительно-правовой анализ законодательства Узбекистана и зарубежных стран в данной сфере. Также в статье выдвигаются предложения по расширению уголовно-процессуальных полномочий адвоката. Законодательством введён порядок получения должностными лицами органов, осуществляющих оперативно-розыскную деятельность, заявлений, объяснений или показаний от подозреваемого, обвиняемого или подсудимого на основании письменного разрешения дознавателя, следователя, прокурора или судьи, находящихся в производстве по данному уголовному делу, и только в присутствии защитника. Расширена обязательность участия защитника в уголовных делах, то есть установлена обязательность участия защитника в делах, по которым заключено соглашение о признании вины; по которым проводится предварительное слушание; касающихся лиц, подозреваемых или обвиняемых в совершении особо тяжкого преступления; а также при рассмотрении вопроса о применении к лицу меры пресечения в виде заключения под стражу или домашнего ареста, содержания под стражей, продления срока домашнего ареста. Кроме того, у подозреваемого появилась возможность иметь защитника с момента его фактического задержания или завершения оперативно-розыскного мероприятия, связанного с задержанием на месте преступления.

Ключевые слова: адвокат, защитник, представитель потерпевшего, сбор доказательств, частная сыскная деятельность, помощник и стажёр адвоката, свидетель, протокол следственного действия.

ISSUES OF EXPANDING THE CRIMINAL PROCEDURAL POWERS OF A LAWYER IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS

Toshev Otabek Sodikovich,
Tashkent State University of Law,
Lecturer at the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption,
Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)

Abstract. The article reveals the legal problems associated with the implementation of the lawyer's criminal procedural powers. A comparative legal analysis of the

legislation of Uzbekistan and foreign countries in this area has been carried out. The article also puts forward proposals to expand the criminal procedural powers of a lawyer. The legislation has introduced a procedure for officials of bodies carrying out operational investigative activities to receive statements, explanations, or testimony from a suspect, accused, or defendant on the basis of written permission from an inquirer, investigator, prosecutor, or judge who are in the proceedings on this criminal case, and only in the presence of a defender. The mandatory participation of a defender in criminal cases has been expanded, that is, the mandatory participation of a defender in cases in which a plea agreement has been concluded, in cases in which a preliminary hearing is being held, in cases concerning persons suspected or accused of committing a particularly serious crime, when considering the application of a preventive measure to a person in the form of detention or house arrest, as well as detention and extension of the term of house arrest. Also, the suspect has the opportunity to have a defender from the moment of his actual detention or the completion of an operational search event related to the arrest at the crime scene.

Keywords: lawyer, defender, representative of the victim, collection of evidence, private detective activity, lawyer's assistant and trainee, witness, record of the investigative action.

Kirish

Bugungi kunda advokatura tizimini isloh etishga qaratilgan chora-tadbirlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda. O'z navbatida, inson huquqlarini himoya qilishning asosiy omillaridan biri sifatida advokatura institutini isloh qilish va samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'tgan davrda advokatura institutini rivojlantirish, uning inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini ta'minlashda tutgan o'rni va rolini oshirish, ayblov va himoyaning tengligini, odil sudlovni amalga oshirishda tomonlar tortishuvi prinsipini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, uning huquqiy asoslari yaratildi.

Shu bilan birgalikda, bugungi kunda ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida advokat tomonidan taqdim etilgan dalillarni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni o'tkazish va ishni sudda yoki ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiquvchi organlarda ko'rib chiqish chog'ida majburiy baholash tartibi joriy etildi.

Qonunchilikda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan mazkur jinoyat ishi o'z yurituvda bo'lgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan arizalar, tushuntirishlar yoki ko'rsatuvlar olish tartibi joriy etildi.

Jinoyat ishlarida himoyachi ishtirokining majburiyligi kengaytirildi, ya'ni aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan ishlarda, dastlabki eshituv o'tkazilayotgan ishlarda o'ta og'ir jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan

shaxslarga oid ishlarda, shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, shuningdek, qamoqda saqlash, uy qamog'i muddatini uzaytirish masalasi ko'rib chiqilayotganda himoyachi ishtiroki majburiyligi belgilandi. Shuningdek, gumon qilinuvchi u amalda ushlangan yoki jinoyat joyida ushlash bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbiri amalda yakunlangan paytdan boshlab himoyach olish imkoniga ega bo'ldi.

O'z navbatida, jinoyat-protsessual qonunchilikda advokat (*himoyachi, jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili, guvohning advokati*) qonunchilikda belgilangan vazifalarini amalga oshirishi, shu jumladan, ishonch bildiruvchi shaxsga (himoya ostidagi shaxs) yuridik yordam ko'rsatishi uchun zarur va yetarli vakolatlarga ega bo'lishi talab etiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq islohotlarining muhim tarkibiy qismi sifatida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashning samarali institutlaridan biri bo'lgan advokaturaning roli va ahamiyatini kuchaytirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Sud ishini yuritishning barcha bosqichlarida tomonlarning tortishuvi prinsipining lozim darajada ishlashini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirildi, advokatlar professional faoliyatini bajarishi uchun zarur qonunchilik bazasi yaratildi.

Lekin tahlillar ko'rsatganidek, advokatura hanuzgacha odamlar ishonchini qozongan huquqni himoya qiluvchi institutga aylana olmadi, advokatlarning huquqlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilayotgan va ular tomonidan sifatli yuridik yordam ko'rsatilishiga xalal berayotgan qator omillar mavjud.

Shu bilan birga, amaliyotchi advokatlardan "Simay Kom" advokatlik firmasining direktori S. Mayorov, [3] "My Lawyer" advokatlik firmasi advokati Dj. Turdaliyev [2] hamda ilmiy hamjamiyat vakillari, xususan R. Altiyev, V. Davlatov, [4] B. Saidov, [5] A. Romanenkovlarning [6] bu boradagi fikr-mulohazalarini tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, amaldagi qonunchilikda belgilangan advokatning jinoyat-protsessual vakolatlari advokatlik vazifalarini to'liq amalga oshirish uchun yetarli darajada emas.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 25-moddasida sud ishlarini yuritish o'zaro tortishuv va taraflarning teng huquqlardan foydalanishi asosida amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, amalda dalillarni yig'ish va taqdim etish borasida ayblov va himoyaning tengligi ta'minlanmagan. Jumladan, himoya tarafi dalillar to'plashda ayblov tarafi singari maxsus texnik vositalar va usullardan foydalanuvchi operativ xodimlar xizmatidan foydalanish imkoniga ega emas.

Ta'kidlash lozimki, mazkur holat amaliyotda dalillar to'plashda ayblov tarafiga katta ustunlik beradi hamda shunga muvofiq ravishda sud ishlarini yuritishda taraflar tengligini ta'minlashni qiyinlashtiradi.

Material va metodlar

Tadqiqotda jinoyat protsessida advokatning ishtirokini kengaytirish masalasi bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy nazariy qarash-

laridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qoʻllandi.

Tadqiqot natijalari

Oʻtgan davrda advokatura institutini rivojlantirish, uning inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini taʼminlashda tutgan oʻrni va rolini oshirish, ayblov va himoyaning tengligini, odil sudlovni amalga oshirishda tomonlar tortishuvi prinsipini taʼminlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etilib, uning huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, 1996-yilda “Advokatura toʻgʻrisida”gi Qonunning qabul qilinishi advokatura institutini isloh qilishda muhim qadam boʻldi. Mazkur sohada olib borilayotgan islohotlar davom ettirilib, 1998-yilda “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilindi.

Mazkur qonunga koʻra, advokatlik faoliyatining prinsiplari, advokatning vakolatlari, advokatning daxlsizligi va mustaqilligini taʼminlash, advokatlik faoliyatining kafolatlari va ijtimoiy himoyasi, yuridik yordamni taʼminlash kafolatlari, advokatura bilan davlat oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlari kabi masalalar huquqiy jihatdan mustahkamlab qoʻyildi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Taʼkidlash joizki, advokatlar kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun zarur qonunchilik bazasi shakllanmoqda. Ochiq aytish mumkinki, islohotlarni toʻlaqonli amalga oshirish va belgilangan maqsadlarga erishishda advokaturaning institutsional asoslari va faoliyat mezonlari zamon talablariga toʻla javob bera olmayapti. Xususan, advokat protsessual maqomining zaifligi, advokatura instituti obroʻsiga putur yetkazadigan va advokatlar huquqlari toʻliq roʻyobga chiqishiga toʻsqinlik qilayotgan holatlar mavjudligi, advokatlar sonining yetarli emasligi oqibatida malakali yuridik yordam olishning cheklangani, yosh kadrlar kamligi va davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yuridik yordam koʻrsatish amaliyotining nomukammalligi kabi holatlar shular jumlasidandir.

Maʼlumotlarga koʻra, bugungi kunda Oʻzbekistonda 4 mingga yaqin advokat faoliyat yuritadi, oʻrta hisobda bir advokatga 8651 fuqaro toʻgʻri kelmoqda. Isroilda 1 advokatga 136 fuqaro, Italiyada 265, Fransiya 1020, Rossiyada 1870, Qozogʻistonda esa 3932 fuqaro toʻgʻri keladi.

Ilgʻor xorij tajribasini tahlil qilish asosida maʼlum boʻldiki, advokatning jinoyat ishi boʻyicha dalillar toʻplashda xususiy detektiv xizmatlaridan foydalanishi sud ishlarini yuritishda taraflar tengligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Jumladan, Italiya [7] va Qirgʻiziston [8] Jinoyat-protsessual kodeksida dalillar toʻplashda himoyachining xususiy detektiv xizmatlaridan foydalanishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Taʼkidlash lozimki, Oʻzbekiston qonunchiligida xususiy detektivlik faoliyati tartibga solinmagan. Shu sababli advokatlar ularning xizmatlaridan qonuniy ravishda foydalanish imkoni mavjud emas.

Xorijiy davlatlardan AQSh, [9] Yaponiya, [10] Ispaniya, [11] Ruminiya, [12] Latviya, [13] Rossiya, [14] Qirgʻizistonda [15] xususiy detektivlik faoliyati qonun darajasida tartibga solingan.



Jumladan, Latviyaning “Detektiv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida detektiv faoliyat bilan jismoniy yoki yuridik shaxslar shug‘ullanishi mumkinligi nazarda tutilgan. Ushbu faoliyat bilan shug‘ullanish uchun davlat politsiyasi tomonidan taqdim etiladigan litsenziyaga (amal qilish muddati besh yil) ega bo‘lish talab etiladi. Detektivlik faoliyati fuqarolik va jinoiy ishlar bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plash, jinoyat sodir etgan yoki bedarak yo‘qolgan shaxslarni qidirish, jinoiy faoliyat bilan bog‘liq faktlarni, buyumlarni yoki shaxslarni aniqlash, jismoniy va yuridik shaxslarga xavfsizlik masalalari bo‘yicha maslahatlar berish, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yo‘qolgan yoki qonunga xilof ravishda begonalashtirilgan mol-mulkni qidirishni o‘z ichiga oladi.

Xususi detektivlik faoliyatining qonun asosida tartibga solinishi hamda himoyachining dalillar to‘plashda xususi detektiv xizmatlaridan foydalanishi sud ishlarini yuritishda o‘zaro tortishuv prinsipining ta‘minlanishiga, himoyachining qonuniy ravishda dalil to‘plash imkoniyati kengayishiga xizmat qiladi.

Jinoyat-protsessual kodeksi 115-moddasida guvoh va jabrlanuvchi tariqasida so‘roq qilinishi mumkin bo‘lmagan shaxslar doirasiga faqat himoyachi hamda jabrlanuvchining, fuqaroviy da‘vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili kiritilgan. Biroq jinoyat ishi yuzasidan yuridik yordam ko‘rsatish natijasida o‘ziga ma‘lum bo‘lgan holatlar yuzasidan advokat, advokatning yordamchisi va stajyori guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin bo‘lmagan shaxslar doirasiga kiritilmagan.

Ta‘kidlash lozimki, advokat advokatlik sirini saqlash majburiyatiga ega bo‘lib, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi birinchi qismiga muvofiq, advokatlarning kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda bevosita yoki bilvosita aralashish, ular o‘z kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma‘lumotlarni oshkor etishni talab qilish taqiqlanadi.

Shuningdek, advokatning yordamchisi va stajyori advokatning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq topshiriqlarini bajaradi hamda “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasiga muvofiq, advokatlik siriga bog‘liq ma‘lumotlarni oshkor etishi va bu ma‘lumotlardan o‘z manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlari yo‘lida foydalanishi man etilgan.

Biroq jinoyat-protsessual qonunchilikda yuqoridagi normalar to‘liq o‘z ifodasini topmagan. Jumladan, advokat gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga jinoyat ishiga himoyachi jalb etilishidan oldin yuridik yordam ko‘rsatgan hollarda ushbu jinoyat ishi yuzasidan o‘tkazilgan dastlabki tergov jarayonida guvoh sifatida jalb etilishi mumkin. Chunki Jinoyat-protsessual kodeksi 115-moddasi birinchi qismi, ikkinchi bandida nazarda tutilgan shaxslar advokat tushunchasini qamrab olmaydi. Shu sababli advokatning (shu jumladan, guvohning advokati) guvoh sifatida ko‘rsatuv berishdan bosh tortishiga huquqiy asos mavjud emas.

Xorijiy davlatlardan Ukraina, Rossiya, Gruziya jinoyat-protsessual qonunchiligida advokatning; Qirg‘iziston va Belarus Jinoyat-protsessual kodeksi 60-moddasida advokat yordamchisi va stajyorining guvoh sifatida so‘roq qilinmasligi nazarda tutilgan.

Qonunchilikdagi nomuvofiqlikning oldini olish hamda jinoyat-protsessual qonunchilikda advokat faoliyatiga bilvosita aralashishga yo‘l qo‘ymaslik uchun advokat,

uning yordamchisi va stajyorini guvoh sifatida so'roq qilinmaydigan shaxslar doirasiga kiritish maqsadga muvofiq.

Jinoyat-protsessual kodeksining 53-moddasida himoyachining gumon qilinuvchi so'roq qilinayotganda ishtirok etish, shaxsga ayblov e'lon qilinayotganda hozir bo'lish hamda ayblanuvchi so'roq qilinayotganda, shuningdek, ularning ishtirokida o'tkaziladigan boshqa tergov harakatlarida ishtirok etish va gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga, guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislariga savollar berish huquqi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, himoyachining tergov harakatiga taalluqli savollarini qanoatlantirish yoki o'tkazilgan tergov harakati bayonnomasiga kiritish majburiy etib belgilanmagan. Tergov o'tkazuvchi vakolatli shaxs o'tkazilgan tergov harakati natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, tergov harakati natijasida olingan dalilning ishga aloqadorligi yoki ishonchligiga shubha uyg'otmasligi uchun himoyachining savollarini bayonnomaga kiritmasligi mumkin. Bu esa dalillarga baho berish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jinoyat-protsessual kodeksi 87-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, himoyachi tomonidan jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq taqdim etilgan dalillar jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi va majburiy baholanishi talab etiladi. Shunga ko'ra, himoyachining o'tkazilgan tergov harakati bo'yicha bergan savollarini majburiy ravishda tergov harakati bayonnomasiga kiritish maqsadga muvofiq.

Xorijiy davlatlardan Qozog'iston, Qirg'iziston va Ukraina jinoyat-protsessual qonunchiligida himoyachining o'tkazilgan tergov harakati bo'yicha bergan savollarini majburiy ravishda tergov harakati bayonnomasiga kiritish tartibi nazarda tutilgan.

Jinoyat-protsessual kodeksi 53-moddasida himoyachi gumonni yoki ayblovni rad etadigan yoxud javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni aniqlash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullarni qo'llashi hamda gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga zarur yuridik yordam ko'rsatishi lozimligi nazarda tutilgan.

Ta'kidlash lozimki, mazkur norma himoyachining jinoyat-protsessual qonunchilik bo'yicha vazifalarini amalga oshirishi uchun zarur vosita va usullar doirasini cheklab qo'ygan.

Xususan, himoyachining gumonni yoki ayblovni rad etadigan yoxud javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni aniqlashi uchun qonunda nazarda tutilgan vosita va usullar yetarli bo'lmasligi mumkin. Qo'llanishi lozim bo'lgan vosita yoki usul qonunda nazarda tutilmagan bo'lsa-da, jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga zid bo'lmasligi mumkin. Ushbu holatda himoyachi mazkur norma talabidan kelib chiqib, o'z vazifasini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan vosita yoki usulni qo'llay olmaydi.

Shu sababli himoyachining gumonni yoki ayblovni rad etadigan yoxud javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni aniqlash uchun jinoyat-protsessual qonunchilikda taqiqlanmagan barcha vosita va usullarni qo'llashiga ruxsat berish taklif etiladi.

Xorijiy davlatlardan Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Estoniya jinoyat-protsessual qonunchiligida himoyachining gumonni yoki ayblovni rad etadigan yoxud javobgarlikni



yengillashtiradigan holatlarni aniqlash uchun jinoyat-protsessual qonunchilikda taqiqlanmagan barcha vosita va usullarni qo'llashi mumkinligi nazarda tutilgan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, himoyachi jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va taqdim etishga haqli bo'lib, ular jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyat ishini sudda ko'rish jarayonida majburiy baholanishi lozim. Ushbu dalillar: ishga taalluqli axborotga ega bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish; davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlarni olish orqali to'planishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Biroq Jinoyat-protsessual kodeksida ushbu huquqni amalga oshirish mexanizmi maxsus tarzda qayd etilmagan. Himoyachi yoki jinoyat protsessining boshqa ishtirokchisi ishni sudga qadar yuritish bosqichida jinoyat ishi bo'yicha tegishli hujjatlar bilan tanishish yuzasidan surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorga iltimosnoma berishi mumkin. Ushbu iltimosnomani qanoatlantirish masalasini hal etish surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning vakolati doirasida bo'ladi.

Qayd etish joizki, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror iltimosnomani qanoatlantirish majburiyatiga ega emas. Shu sababli himoyachi va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari o'tkazilgan protsessual harakatlarga oid hujjatlar bilan tanishish huquqini amalga oshirish mexanizmini jinoyat-protsessual qonunchilikda alohida qayd etish maqsadga muvofiq.

Niderlandiyada himoyachining gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ishtirokida o'tkazilgan hamda boshqa protsessual harakatlarga oid hujjatlar bilan tanishish yuzasidan iltimosi ish yuritishning dastlabki tergov bosqichida mazkur tergovni amalga oshirish uchun mas'ul shaxs tomonidan qondirilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, Ukraina Jinoyat-protsessual kodeksida ishni sudga qadar yuritishda taraflardan birining iltimosiga binoan, unga surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan jinoyat ishidagi materiallar taqdim etilishi lozimligi belgilangan.

Xulosalar

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hamda ilg'or xorij tajribasidan kelib chiqib, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

- O'zbekiston Respublikasining "Xususiy detektivlik faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish;
- himoyachining gumonni yoki ayblovni rad etadigan yoxud javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni aniqlash uchun jinoyat-protsessual qonunchilikda taqiqlanmagan barcha vosita va usullarni qo'llashiga ruxsat berish;
- himoyachining o'zi ishtirok etayotgan tergov harakati bo'yicha bergan savollari, fikr-mulohazalari va e'tirozlarini majburiy tarzda tergov harakati bo'yicha bayonnomaga kiritish tartibini joriy etish;
- advokat, uning yordamchisi va stajyorini guvoh sifatida so'roq qilinmaydigan shaxslar doirasiga kiritish;

– himoyachi va jinoyat protsessidagi boshqa ishtirokchilarning o'tkazilgan protsessual harakatlarga oid hujjatlar bilan tanishish huquqini amalga oshirish mexanizmini jinoyat-protsessual qonunchilikda alohida belgilash.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi jinoyat protsessida dalillarni yig'ish va taqdim etish borasida ayblov va himoya tengligining amalda ta'minlanishiga, himoyachining jinoyat ishi bo'yicha bergan fikr-mulohazalarining inobatga olinishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Davlatov V. Advokatura institutiga o'zini o'zi boshqarish prinsiplarini joriy etish [Introduction of principles of self-management to the Institute of Advocacy]. *Qonunchilik muammolari axborotnomasi – Legislative Issues Newsletter*, 2021, no. 2, pp. 22–24.
2. Turdaliyev D. O'zbekistonda advokaturaning institutsional mustaqilligi: muammolar va ularni hal etish yo'llari [Institutional independence of the legal profession in Uzbekistan: problems and ways to solve them]. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences*, 2020, pp. 192–207.
3. Mayorov S. Advokatlik faoliyatini raqamlashtirish bizning barcha muammolarimizni hal qiladimi? [Will digitizing the legal profession solve all our problems?]. 2022. Available at: <https://nuz.uz/svobodnoe-mnenie/1244913-reshitli-vse-nashi-problemy-czifrovizacziya-advokatskoj-deyatelnosti.html>
4. Saidov B. Issues of improvement of the institute of advocacy in Uzbekistan. *Web of Scientist*, 2021, vol. 2, iss. 10, pp. 197–203.
5. Romanenkov A.F. Problemy reformirovaniya advokatury v sovremennoy pravovoy sisteme (na primere advokatury Respubliki Uzbekistan) [Problems of reforming the legal profession in the modern legal system (using the example of the legal profession of the Republic of Uzbekistan)]. *Mudryy Yurist – Wise Lawyer*, 2022, vol. 2, iss. 10. Available at: <https://wiselawyer.ru/poleznoe/42404-problemy-reformirovaniya-advokatury-sovremennoj-pravovoj-sisteme-primere>
6. Italian Code of Criminal Procedure. 2019, pp. 245–246. Available at: altalex.com/documents/news/investigazioni-difensive
7. Criminal Procedure Code of Kyrgyzstan. 2021, pp. 231–232. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru>
8. Law of Japan Concerning the Optimization of Detective Agency Business. 2019, pp. 375–379. Available at: <https://elaws.e-gov.go.jp/document?lawid>
9. Law of Spain on Private Security. 2016, pp. 75–79. Available at: <https://www.boe.es/buscar/act.php?id>
10. Law of Romania on the exercise of the profession of private detective. 2014, pp. 57–62. Available at: <https://legislatie.just.ro/Public/DetaliiDocument>



11. Zakon RF “O chastnoy detektivnoy i okhrannoy deyatel’nosti v Rossiyskoy Federatsii” [Law of the Russian Federation On private detective and security activities in the Russian Federation]. 1992. Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_385
12. Ugolovno-protsessual’nyy kodeks Gruzii [Criminal Procedure Code of Georgia]. Available at: www.matsne.gov.ge/ru/document/download/90034/37/ru/pdf
13. Ugolovno-Protssessual’nyy Kodeks Respubliki Belarus’ [Criminal Procedure Code of the Republic of Belarus]. Available at: https://kodeksy-by.com/ugolovno-protsessualnyj_kodeks_rb/60.htm
14. Code of Criminal Procedure of Estonia. Available at: <https://www.riigiteataja.ee/en/eli/530102013093/consolide>
15. Law on Detective Activity of Latvia. Available at: <https://likumi.lv/ta/id/26311-detektivdarbibas-likums>
16. Law of Romania on the exercise of the profession of private detective. Available at: <https://legislatie.just.ro/Public/DetaliiDocument/45168>

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.2./ZOYK5903>
UDC: 347.934(045)(575.1)

HUJJATLARNI QALBAKILASHTIRISH VA QIMMATLI QOG'OZLARNI SOXTALASHTIRISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING XORIJ AMALIYOTI

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

ORCID: 0000-0003-2729-526X

e-mail: abduvalicrimelaw@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda xorij amaliyotining muhim jihatlari yoritilgan. Hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlar hozirgi zamonda eng keng tarqalgan jinoyatlar sirasiga kiradi. Texnologiya yangiliklari ko'paygan sari undan foydalanish imkoniyatlari oshib boradi. Ayniqsa, hozirgi zamonda hujjatlarning haqiqiylikini saqlovchi xavfsizlik baland bo'lishiga qaramay, ularni qalbakilashtirish yo'llari texnologiya sababli hali ham mavjuddir. Ushbu jinoyatning dolzarbligi shundaki, hujjatlarni soxtalashtirish faqatgina ijtimoiy xavfliligi bilangina dolzarb emas, balki uning zarari ham shaxsga, ham davlatga birdek zarar yetkazadi. Qimmatli qog'ozlarni qalbakilashtirish bilan bog'liq jinoyatlar esa davlatning iqtisodiy siyosatiga putur yetkazadi, shuningdek, iqtisodiy muvozanatni buzishga, davlatda ortiqcha pullar va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'payib ketishiga sabab bo'lyapti. Maqolada yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun xorij amaliyotining dolzarb jihatlari bayon etilgan. Shuningdek, hozirda ko'p uchrayotgan qalbaki hujjatlar va pullarni aniqlashning xalqaro uslublari ifodalangan. Jamiyat taraqqiyotining jadal rivoji davlat siyosatidan tortib to boshqaruv tizimining eng quyi pog'onasigacha barcha sohalarida ish yuritishning zamon talablariga javob bera oladigan usullari qo'llanishini talab qiladi. Shu sababli kerakli metod va usullarni o'rganish va joriy etish muhimdir.

Kalit so'zlar: qimmatli qog'ozlar, identifikatsiya, qalbakilashtirish, jinoyat, tergov, iqtisodiy jinoyat, indelgio, suv belgilari, filigranologiya.



ЗАРУБЕЖНАЯ ПРАКТИКА РАССЛЕДОВАНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПОДДЕЛКОЙ ДОКУМЕНТОВ И ЦЕННЫХ БУМАГ

Шоназаров Абдували Шоназарович,
преподаватель Кашкадарьинского
областного юридического техникума

Аннотация. В данной статье освещены важные аспекты зарубежной практики расследования преступлений, связанных с подделкой документов и ценных бумаг. Преступления, связанные с подделкой документов и ценных бумаг, относятся к числу наиболее распространённых преступлений современности. По мере развития технологий расширяются и возможности их использования. Несмотря на высокий уровень безопасности, способствующий сохранению и защите подлинности документов, особенно в наше время все ещё существуют способы их подделки благодаря технологиям. Актуальность данного преступления заключается в том, что фальсификация документов актуальна не только в силу своей общественной опасности, но и в силу причинения вреда личности и государству. Преступления, связанные с подделкой ценных бумаг, подрывают экономическую политику государства, а также нарушают экономическое равновесие, вызывая увеличение избытка денег и других ценных бумаг в государстве. В связи с этим в статье описываются актуальные аспекты зарубежной практики для решения вышеуказанных проблем. Также представлены международные методы выявления поддельных документов и денег. Стремительное развитие общества требует использования современных методов работы во всех сферах: от государственной политики до низшего уровня системы управления. Поэтому важно изучить и внедрить актуальные методы и приёмы расследования таких преступлений.

Ключевые слова: ценные бумаги, идентификация, подделка, преступление, расследование, экономическое преступление, индельжио, водяные знаки, филология.

FOREIGN PRACTICE IN THE INVESTIGATION OF CRIMES RELATED TO FORGERY AND FORGERY OF SECURITIES

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,
Teacher of Law College of
Kashkadarya Region

Abstract. This article highlights important aspects of the foreign practice of investigating crimes related to the forgery of documents and securities. Crimes related to the forgery of documents and securities are among the most common crimes of our time. As technology advances, so do the possibilities for its use. Especially in our time, despite the high level of security that preserves the authenticity of documents, there are still

ways to forge them thanks to technology. The relevance of this crime lies in the fact that the falsification of documents is relevant not only because of its public danger but also because it causes harm to the individual and the state. Counterfeiting crimes undermine the economic policy of the state and also upset the economic balance, causing an increase in the excess of money and other securities in the state. That is, the article describes the current aspects of foreign practice for solving the above problems. International methods for detecting counterfeit documents and money are also presented. The rapid development of society requires the use of modern methods of work in all areas, from public policy to the lowest level of the management system. Therefore, it is important to study and implement the necessary methods and techniques.

Keywords: securities, identification, forgery, crime, investigation, economic crime indelgio, watermarks, filigranology.

Kirish

Soxta pullar va qimmatli qog'ozlarni sotish maqsadida ketma-ket ishlab chiqarish, shuningdek, ma'lumotlarning noqonuniy aylanishini qo'zg'atish bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarlarning keyingi noqonuniy harakatlari qalbaki mahsulotlar asrlar davomida og'ir jinoyatlar sifatida tan olingan, jazolarning muqarrarligini nazarda tutadi. Ushbu harakatning yuqori ijtimoiy xavfliligi ko'pchilik sivilizatsiyalashgan davlatlarning jinoyat qonunchiligida o'z ifodasini topgan. Qalbaki pullar yoki qimmatli qog'ozlarni ishlab chiqarish yoki sotish doimiy ravishda moliya-kredit sektoriga hujumlarda salmoqli ulushga ega bo'lib kelyapti, shuningdek turli tahlilchilarning fikriga ko'ra, ushbu toifadagi barcha jinoyatlarning yarmiga to'g'ri keladi. Mamlakatimiz barcha sohada, xususan, jinoyat qonunchiligi sohasida rivojlanib, islohotlar amalga oshirilayotganiga qaramay, turli xil kamchiliklar va qarama-qarshiliklarga duch kelmoqda. Sud-huquq tizimida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan ba'zi sohalar yangi texnologiya tufayli ancha yengillashtirilayotgan bo'lsa ham, ulardan noto'g'ri yo'lda foydalanishga urinishlar ham birdek rivojlanib bormoqda. Rivojlangan davlatlarda ushbu muammolarga nisbatan turli yechimlar mavjud. Amerika Qo'shma Shtatlarida iqtisodiy jinoyatlar fuqarolik va jinoiy huquq nuqtayi nazaridan xavfli jinoyatlar sirasiga kiradi. Qimmatli qog'ozlar soxtalashtirilishi tergovini AQSh maxfiy xizmati olib borishi yuqoridagi fikrni isbotlaydi. 1933-yildagi "Qimmatli qog'ozlar to'g'risida"gi [1] va 1934-yilgi "Qimmatli qog'ozlar almashinuvi to'g'risida"gi [2]. Qonunlarga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq firibgarlik moliyaviy bozorlarni manipulyatsiya qilish yoki investorlarni noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlarga asoslangan moliyaviy investitsiya qarorlarini qabul qilishga ko'ndirish uchun qasddan yolg'on amaliyotlar bilan shug'ullanish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

AQSh tergovchilari doim o'zining sinchkovligi, puxtaligi, kam xato qilishi bilan alohida e'tirofda turadi. Bunga sabab davrlar mobaynida shakllangan tajriba, bilim va ko'nikmalarning natijasidir. Bundan tashqari, jamoaviy ishlash amerikalik ekspertlarning yutuqli tomoni desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bunga misol, Richerd



Saferstein o'zining "Forensic science Introduction to" asarida amerikalik ekspertlar doim guruh-guruh bo'lib ishlashlarini bayon qiladi.[3] Masalan, voqea joyini ko'zdan kechirish tergov harakatida odatda voqea joyiga tergovga qadar tekshiruv organlari xodimlari borishsa, AQShda bunday tergov harakatida ekspertlar guruhi safarbar qilinadi. Ular voqea joyini qismlarga bo'lishadi va har bir ekspert alohida-alohida o'zlariga birlashtirilgan hududlarni puxtalik bilan tergov qiladi. Ular har bir detalni puxtalik bilan o'rganib bo'lishgach, keyingi yoki o'zidan oldingi boshqa ekspert bilan joy almashadi. Oldingi ekspert o'zidan keyingi ekspertning hududini qayta analiz qiladi. O'tkazib yuborilgan, nazardan chetda qolgan detallarni boshqa ekspert, albatta, aniqlaydi. Inson xato qiluvchidir, ya'ni inson omili biz xohlaymizmi-yo'qmi, baribir xatoga yo'l qo'yadi. Ammo shaxs xarakteri va ziyraklik individual xarakterga ega bo'lganligi uchun bir shaxs qilgan xatoni boshqa shaxs qayta takrorlamaydi. Xuddi shunday, hujjatlar va qimmatli qog'ozlar tergovida ham amerikalik ekspertlar guruh-guruhga bo'linadi va bitta hujjat namunasi kamida uchtdan beshtagacha ekspert qo'lidan o'tadi.

Sudanning Xartum shahrida joylashgan Sudan fan va texnologiya universiteti Kompyuter va Axborot texnologiyalari fakulteti professori, Alsodiq Bashir o'zining "*Techniques in Detecting Forgery in Identity Documents*" nomli ilmiy asarida soxta hujjatlarni aniqlash tergov harakatlari, uning yangicha uslublari haqida bayon qiladi. Uning aytishicha, birgina AQShning o'zida har yili 500 000 kishi soxta ID lar yoki qalbaki hujjatlardan tahminan 750 million dollar zarar ko'rmoqda [4].

Material va metodlar

Tergovda hujjatning aslini, uni tayyorlash vaqti, usullari va vositalari, ularda qalbakilashtirish alomatlarini, ko'rinmas va kuchsiz ko'rinadigan qaydlarni aniqlash, yonib ketgan hujjatlarni, undagi ma'lumotlarni qayta tiklash zarur bo'ladi. Hujjatlarni tekshirish identifikatsiyaviy va noidentifikatsiyaviy yo'l bilan amalga oshiriladi.

Noidentifikatsiyaviy yo'l hujjatlar tayyorlangan vaqtini aniqlash; u tayyorlangan joyni aniqlash; turli hujjatlarning kelib chiqish manbayi umumiylikni aniqlash; hujjatni saqlash shart-sharoitlarini aniqlash; uning keyinchalik o'zgartirilganlik fakti va usulini aniqlash; ko'rinmas yoki maxfiy yozuvlarni, shuningdek, o'chirilgan, ustiga to'kilgan, yelimlangan, zararlangan yoki yoqilgan qismlarni aniqlash va past ko'rinadigan yozuvlarni kuchaytirish; hujjatni yoki uning alohida rekvizitlarini tayyorlash usulini aniqlashni va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Identifikatsiyaviy yo'l esa to'liq hujjat yoki uning bir qismi nashr etilgan aniq chop etuvchi apparat va qurilmani aniqlash; bosma matn ijrochisini aniqlash; yaxlit hujjatni uning qismlari bo'yicha tiklash; xat yoki bosma hujjat materialini aniqlash (masalan, yozuv aniq ruchkada bo'ladigan rangda bajarilganmi) va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, AQShda qo'lyozma namunalarini tahlil qilishning uchta bosqichi mavjud [5]. Birinchisi – soxta deb taxmin qilinayotgan hujjat bilan haqiqiy hujjat namunalarini solishtirish hamda kerakli eslatmalar, belgilar va farqlarni qayd qilib qo'yish. Haqiqiy namunani tahlil qilayotganda tergovchi gumon qilinuvchi shaxsning, albatta, nazorat ostida bir qancha yozuv namunalarini oladi. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki, gumon qilinuvchi tergov uchun yozuv yozayotganini bilmasligi kerak.

Undan ixtiyoriy ravishda, istalgan, oxirgi, biror-bir tadbir haqida yozib berishini so'rash ma'qulroq. Eng yaxshi namuna bo'lishi mumkin bo'lgan yozuvlar xatlarda, kundaliklarda, faxriy yorliqlarda va shaxsiy eslatmalarda bo'ladi. E'tibor berish kerakki, mana shu yozuv namunalariida gumon qilinuvchi tekshirilayotgan, soxta deb taxmin qilinayotgan hujjatda ishlatilgan so'zlar, harflar va belgilarni ishlatgani ishning aniqroq bo'lishini ta'minlaydi. Bu, albatta, tanlanayotgan namuna turini to'g'ri tanlashga bog'liqdir. Tergovchi bunda puxta bo'lishi talab qilinadi. Keyin tekshirilayotgan belgilar va so'zlar haqiqiy namuna bilan solishtiriladi. Bunda tergovchi e'tibor berishi kerakki, hujjatdagi belgilarning o'xshashligi to'plangan namunalarning hammasida bo'lishi kerak. Shuning uchun ko'proq namunalar to'plash tavsiya qilinadi. Nihoyat ekspert hujjatning haqiqiy yoki aksincha ekanligi, uning muallifi haqida o'zining so'nggi xulosasini bayon qiladi va izohlaydi.

Ko'pincha apparat vositalarida ma'lumot izlaridan tashqari kriminalistika uchun odatiy izlar ham uchrab turishi sababli, ko'zdan kechirishga mutaxassis-kriminalistni taklif qilish ham maqsadga muvofiqdir. Tergov amaliyotida kompyuter vositalarining ichki elementlarida barmoq izlari, metallni qayta ishlash asboblari, qo'lda ulash izlari qolganligi holatlari ma'lum [6].

Tadqiqot natijalari

Agar farq aniq bo'lsa, ushbu yozuvlar har xil mualliflar tomonidan yaratilgan degan xulosaga kelinadi. Ammo belgilarning o'xshash bo'lishi muallif bitta ekanligini anglatmaydi. Chunki ikkita shaxs o'xshash xarakteristikaga ega bo'lishi mumkin. Yaxshi ekspert juda ko'p faktorlarni bilishi va o'zining tahlillari natijasida ko'plab takrorlanishlardan xabardor bo'lishi kerak. Bundan tashqari, professionallar shaxs o'zining yozuvini, uning individual belgilarini yashirishga uringanini yoki kimningdir yozuvini ko'chirishga harakat qilganmi yoki yo'qmi, aniqlay olishi kerak. Qo'l yozuvi namunalari ilmiy tahlil qilingandan so'ng ekspert qo'l yozuvi tahlilining yozma hisobotini tayyorlaydi va hakamlar hay'atiga taqdim etadi. Prokuratura ham, advokatlar ham hujjatlar tergov jarayonida istalgan ma'lumotni olish huquqiga egadirlar. Yakunda ekspert o'zi qilgan qarorning sabablarini ifodalashi, kerak bo'lganda, qo'shimcha tushuntirishlar berishi lozim bo'ladi.

Qalbakilashtirish bo'yicha AQSh federal qonunlarida o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan javobgarlik belgilangan [7]. Federal qonunga ko'ra, xavfsizlik qonunchiligini buzganlik uchun esa yigirma yilgacha qamoq va besh million dollar jarima jazosi belgilangan. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha firibgarlik uchun jazo taxmin qilingan sxemada manipulyatsiya qilingan pul miqdori bilan belgilanadi. Ya'ni foyda olish maqsadida biror-bir hujjatni qalbakilashtirish, o'zgartirish yoki soxtalashtirish, shuningdek, foyda olish uchun har qanday soxta, qalbaki, o'zgartirilgan yoki soxtalashtirilgan hujjatdan foydalanish hujjatlarni qalbakilashtirish hisoblanadi. AQSh jinoyat qonunchiligida soxtalashtirish hamda qalbakilashtirish masalasiga juda jiddiy yondashgan holda ularning uch bosqichda sodir etilishi haqida aniq ta'rif keltirib o'tilgan. Ularga muvofiq birinchi bosqichda, shaxs soxtalashtirilgan hujjatni o'ziga ma'lum biror shaxsga namoyish etadi yoki undan foydalanadi. Ikkinchi bosqichda shaxs biror-bir asl nusxadagi hujjatni yasaydi yoki qalbakilashtirib, unga shunchaki

egalik qiladi. Oxirgi bosqichga ko'ra, shaxs faqatgina soxtaligi ma'lum bo'lgan, ammo o'zi yasamagan soxta hujjatga egalik qiladi, ushbu uchala bosqichning barchasi ham jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi [8].

Shuningdek, soxta hujjatlarga egalik qilish, olish, qabul qilish yoki taqdim etish, yoki olish maqsadida egasidan boshqa shaxsga (shu jumladan, vafot etgan shaxsga) qonuniy ravishda berilgan yoki unga nisbatan qonuniy ravishda berilgan har qanday hujjatdan foydalanish yoki foydalanishga urinish qalbakilashtirishning boshqa ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu moddaning uchinchi qismiga binoan, boshqa shaxsga (shu jumladan, vafot etgan shaxsga) qonuniy ravishda berilgan har qanday hujjatni noqonuniy ravishda qabul qilish to'g'risida oldindan aniq bilgan holda hujjatlarni qalbakilashtirish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'tmishda skaner qila olish va rangli printerlar yordamida qimmatli qog'ozlarni qalbakilashtirish unchalik qiyin ish bo'lmagan. Skanerlash orqali valyutada topilgan murakkab chiziqlar va tafsilotlarni olish mumkin. Maxfiy xizmat texnologiya yordamida qimmatli qog'ozlarga skanerlash ilojsiz bo'lgan belgilar qo'shgan. Agarda skanerlash muvaffaqiyatli amalga oshirilgan taqdirda ham, uni chop etishda qiyinchiliklarga uchragan. Eng murakkab printerlar ham, qog'oz ichidagi mayda detallarni chop qila olmaydi. Haqiqiy pullar maxsus qog'ozlarda chop qilingani tufayli qalbakilashtirilgan pullar aslidan farq qiladi. Haqiqatan, soxtalikni anglashning eng birinchi yo'li haqiqiy emasligini his qilishdir. Shuning uchun qog'oz birinchi o'rindagi xavfsizlikdir. Amerika hukumati qalbakilashtirish va nusxa olishlarning oldini olish uchun qimmatli qog'ozlarning dizayni ustida ishlashda davom etmoqda [9].

Mazkur jinoyatlarning oldini olish uchun ko'plab yangiliklar qilindi. Ulardan biri, hozirgi kunda barcha davlatlar tomonidan keng foydalaniladigan – barmoq izlarini olish. Bu birinchi bo'lib xitoylik Chunlin Yang [10] tomonida taklif qilingan. Keyinchalik Niderlandiyada Bin Shoutin va Bart Yakobslar tomonidan soxta hujjatlarni aniqlash uchun barmoq izlari, ovoz, imzo, ko'z nurlari, kaft geometrik shaklini olish kabi identifikatsiya turlari taklif etildi [11].

AQSh hukumati pasportlarga yuz va barmoq izlarining ikkalasini ham qo'shdi. Yuzni aniqlash komponenti 3 kategoriyaga bo'linadi: birinchisi, metodga asoslangan lokal yo'nalish bo'lib, u ko'zlar, burun, og'iz va ularning joylashuvini alohida qismlarga ajratib tekshiradi. Ikkinchisi metodga asoslangan ko'rinish identifikatsiyasi bo'lib, yuzning umumiy ko'rinishini identifikatsiya qiladi. Uchinchisi, aralash metod bo'lib, ikkala metodni birlashtiradi [12].

Pullarni qalbakilashtirishlardan himoyalash bir qancha jarayonlarni va vaqtni talab etadi. Hozirgi vaqtda banknotalarni tayyorlashda "indelgio" usulidan foydalanilmoqda. Ya'ni banknotalar qavariq tasvir tushirish usulidan foydalanilgan holda tayyorlanadi. Mutaxassislarning fikricha, undan nusxa olib bo'lmaydi. Bunday usulda qalbakilashtirilgan qimmatli qog'ozlarni maxsus texnikalarsiz ham aniqlashning iloji bor [13].

Xalqaro miqyosda pasportlarning tarkibiy qismi – barmoq izi – pasportdagi yuz tasviri bilan birga ishlaydi. Barmoq izi hammaning mashhur biometrikasi hisoblanadi. Bu tasdiqlash yoki identifikatsiya qilish usulidir. Ikki barmoq izini solishtirish orqali shaxsning alohida identifikatsiyasini aniqlash mumkin bo'ladi. Biroq u yerda yuz

va barmoq izini tanib olishning ba'zi to'siqlariga duch kelinishi mumkin. Sababi yoshlar va keksalardagi biologik o'zgarishlar aniq individual belgilarni aniqlashni qiyinlashtiradi. Shuning uchun saqlangan shablonlar tez-tez yangilanishi kerak. Bundan tashqari, yuzning holati, soqol, mo'ylov va soch turmagi kabi fon tasvirlari, barchasi tizimning ishlashiga ta'sir qilishi mumkin. Boshqa tomondan, barmoq izlarining yoshga qarab o'zgarishi, izlarning holatga qarab zaiflashishi, shuningdek, quruq, ho'l yoki tirnalgan barmoq izlari tizim sifatiga ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, o'ng barmoq izini chapga va aksincha o'zgartirish tizimga ta'sir qiladi [14].

Xalqaro miqyosda hujjatlarning xavfsizlik darajalarini oshirish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshiriladi. Ulardan biri – “suv belgilari” deb nomlanadigan texnologiya orqali hujjatlarning belgilarini yashirish [15]. Bunda suv belgilari orqali rasm, yozuv, shakllar va boshqa belgilar ostiga alohida elementlar yashiriladi. Masalan, pullarda, xususan, o'zbek so'mlarida qog'ozlar orasida maxsus gerb shakli mavjud. U yozuvlar va rasmlar ostida yashiringan alohida belgidir. Hozirgi suv belgilarini filigranologiya deb ataluvchi maxsus fan o'rganadi. Suv belgilaridan tashqari, himoya qilishning boshqa o'nlab usullari mavjud bo'lib, ularga grafika elementlari assortimenti (yuqori darajadagi aniqlikda bajarilgan bir rangdagi va ko'p rangli naqshlar, suratlar, portretlar, ramzlar, seriyali raqamlarning muayyan konfiguratsiyasi)dan tortib tartibsiz kiritilgan rangli tolalargacha kiradi.

Xulosalar

Shunday qilib, hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishning xorij amaliyotidan kerakli bilim malaka va ko'nikmalarni egallash, shuningdek, rivojlangan davlatlardagi metodlarni mamlakatimizda joriy etish orqali mavjud muammolarga yechim topgan bo'lardik. Hozirgi kunda texnologiya namunalari rivojlanib borayotgani sababli sun'iy intellekt inson qilishi mumkin bo'lgan ko'p ishlarni tezroq va sifatliroq bajarmoqda. Hozir hujjatlarni identifikatsiya qilib bera oladigan ko'plab platformalar va veb-saytlar mavjud. Biz tergovchilar va ekspertlar mana shunday platformalar va veb-saytlardan kengroq foydalanishlarini taklif qilamiz. Hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda tergovchi faoliyatini takomillashtirish va tergov ishini yanada yengillashtirish uchun avvalo bu boradagi moddiy-texnik bazani takomillashtirish zarur. Yuqoridagi ishlarni amalga oshirish mamlakatimizda ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olish hamda unga qarshi samarali kurashish imkoniyatini oshiradi.

REFERENCES

1. The Securities Exchange Act of 1934. U.S.C
2. The Securities act of 1933. U.S.C. Available at: <https://www.investopedia.com/terms/s/securitiesact1933.asp>
3. Saferstein R. Forensic science Introduction to criminalistics. P. 59.



4. Bashir A. Techniques in Detecting Forgery in Identity Documents. Sudan, 2017, November. The 5th Sudan Conference on Computer Science and Information Technology (SCCSIT'17). El-Nuhoud, Sudan.
5. Miller M.D. Forensic Handwriting and Signature Analysis. 2021.
6. Forensics. The team of authors. Tashkent, 2018.
7. Federal crime of counterfeiting money. 18 U.S.C. § 471. Federal Law in USA.
8. Federal laws on counterfeit United States currency. Eisner Gorin LLP is committed to answering your questions about Criminal Defense law issues in Los Angeles, California.
9. Shang S., Memon N., Kong X. Detecting documents forged by printing and copying. *EURASIP J. Adv. Signal Process.*, 2014, vol. 140.
10. Yang Ch. Fingerprint biometrics for ID document verification. 2014, Oct. 23.
11. Hoepman J.-H., Jacobs B. E-passports without the big picture. Radboud. University Nijmegen, Netherlands Publ., 2006, February 20.
12. Nickel J. Detecting Forgery. Forensic investigation of documents. University of Kentucky, 2005.
13. Wigger E. Criminalistic Techniques - Guidelines for Criminologists. 2004.
14. Al-Ameri M., Mahmood B., Ciylan B., Amged A. Unsupervised Forgery Detection of Documents: A Network-Inspired Approach. Graduate School of Natural and Applied Sciences, Gazi University, 06570 Ankara, Turkey, 2023.
15. Umair Kh., et al. An Intelligent Three-Level Digital Watermarking Method for Document Protection. *Mehran University Research Journal of Engineering and Technology*, 2021, Apr., vol. 40, no. 2, p. 323.

KRIMINOLOGIYA

VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 2-son

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.3.2.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOSH MUHARRIR:

N. Salayev

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR:

Y. Kolenko

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

D. Bazarova

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

Mas'ul muharrir: K. Hakimov

Muharrirlar: Y. Mahmudov, Y. Yarmolik

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Jurnal 2023-yil 1-iyunda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i: 5,35.

Adadi: 30. Buyurtma: № 30.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

ISSN 2181-2179

© Toshkent davlat yuridik universiteti